

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

Muhammadiyev Sardor Xujaqulovich

**"SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK XIZMATLAR HOLATI VA
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI"**

5A230102 "Iqtisodiyot (xizmatlar sohasi) " mutaxassisligi bo'yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar dosent v.b.,
i.f.n., T.S.Sharipov.

SAMARQAND - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

1-bob.	Iqtisodiyotni rivojlantirishda turizm sohasining o'rni va turistik xizmatlar tushunchasining nazariy masalalari.
---------------	---

1.1	Turistik xizmatlar tushunchasi, tavsifi va tasnifining nazariy masalalari.....	9
1.2	O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o'rni va ahamiyati.....	18
1.3	Xalqaro turizmning hozirgi holati va O'zbekistonda uni rivojlanish istiqbollari.....	25

2-bob.	Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining rivojlanish holati.
---------------	---

2.1	Samarqand viloyatining ijtimoiy iqtisodiy tavsifi.....	31
2.2	Samarqand viloyatida turistik xizmatlar tahlili.....	41
2.3	Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining mintaqaviy iqtisodiyotiga ta'siri holati.....	51

3-bob.	Turistik xizmatlar sifati va hajmini oshirish orqali turistik xizmatlarni rivojlantirish yo'llari.
---------------	---

3.1.	Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sifati va xizmatlar hajmini oshirish imkoniyatlari.....	56
3.2	Samarqand viloyatida turistik xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.....	61
3.3	Samarqand viloyatida turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	70

Xulosa va takliflar.....	79
---------------------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82
--	-----------

Ilovalar.....	88
----------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Insonlar hayot darajasi va sifatini yaxshilashda xizmat sohasining o'rni beqiyosdir. Shu bois ham dunyo mamlakatlari miqyosida ushbu soha muttasil rivojlanib bormoqda. Xizmat sohasini rivojlantirishga mamlakatimizda ham katta ahamiyat berilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida, 2014 yilda uning mamlakat YalMdagi ulushi 54,0 foizga yetganligi xizmat qiladi.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini bozor munosabatlarining shakllanishi va chuqurlashib borishi bilan yanada rivojlantirish, unda raqobat muhitini vujudga keltirish, hozirgi murakkab sharoitda kun tartibiga turli yangi va o'ta muhim masalalarni qo'ymoqda. Bular safida turizm sohasidagi turistik xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirish masalasi g'oyat muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning turistik resurslari yiliga o'rtacha 4 mln. kishini qabul qilishga imkon beradi. Bunga erishish uchun turistik resurslardan oqilona, to'liq foydalanish, turistik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash yo'llarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. O'zbekistonning turistik salohiyati dunyo mamlakatlari orasida o'rtacha ko'rsatkichdan baland hisoblanadi. Demak, mamlakat eksporti va YalMda turizmning ulushi yuqori bo'lishi lozim. Lekin hozirgi kunda O'zbekiston YalMda turistik xizmatlarning ulushi ancha kam. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikada mavjud turistik resurslardan yetarlicha samarali foydalanilmayapti. Bunga asosiy sabablardan biri turistik xizmatlar sifatining talab darajasida emasligi va samaradorligining pastligi hamdir.

Hozirgi sharoitda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "aholiga xizmat ko'rsatish sohasini yanada kengaytirish g'oyat muhim ahamiyatga ega" Bunda turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirishning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ko'rsatiladigan turistik xizmatlar jahon standartlari talablariga javob beradigan darajada bo'lishi lozim. Shuning uchun mavjud turistik korxonalar, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi firma va tashkilotlar, mehmonxonalar va h.o.larda

servisi sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini to'liq ishga solish ularni alohida tadqiq qilishni, ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shulardan kelib chiqib, turistik xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zarurdir. Shu bilan birga mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdik. Buning natijasida turistik oqim ortdi. So'nggi 20 yilda turizm rivojlanishida tendensiyaga aylanib ulgurgan jihatlar bor. Ularni tadqiq etish va ijobiylarini rivojlantirish yuzasidan tadbirlar belgilash ham dolzarb masaladir.

Muammoning o'rganilganlikdarajasi. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi tadqiqotlari bilan bir qancha MDH mamlakatlari olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Bular jumlasiga M.B.Birjakov, S.Senin, T.T.Xristov, V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskaya, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, A.Durovich, kabilarini kiritish mumkin. Respublikamiz olimlaridan G'.H.Qudratov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.Tuxliyev, M.R.Usmonov, M.M.Muxammedov, D.K.Usmanova, M.Xoshimov, A.Norchayev, B.To'rayev, kabilarning asarlarida turizm sohasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Yana shuni aytish joizki Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasi bo'yicha chuqur izlanishlar olib borilmagan shu sababli turistik xizmatlar sohasining Respublika iqtisodiyotini barqaror va dinamik rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganish va sohada mavjud muammolarni yechish yo'llarini tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Magistrlik dissertatsiya ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu bitiruv malakaviy ish iqtisodiyot kafedrasining "Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va axolining yashash sifatini oshirish muammolari va yechimlari" nomli ilmiy tadqiqot ishlar rejasi, «Samarqand viloyatida 2012-2016 yillarda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012 yil 10 mayda "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-sonli qarorida belgilangan vazifalarni yechimi bilan bog'liq.

Tadqiqot maqsadi. Turistik xizmatlar sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilgan holda, barqaror rivojlanishini ta'minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- turistik xizmatlar sohasining bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o'rganish va yoritish;
- turistik xizmatlar sohasining iqtisodiy, tashkiliy-tarkibiy va huquqiy muammolarini aniqlash;
- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining holatini tahlil qilish;
- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining rivojlantirish yo'nalishlarini ko'rsatib berish.
- Turistik xizmatlar sohasi taraqqiyotini, mamlakat iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashning nazariy masalalari.
- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining rivojlanish holati.

Tadqiqot obyekti. Samarqand viloyatida turistik xizmatlar ko'rsatish korxonalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Mamlakatni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida turistik xizmatlar sohasining rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishning nazariy-uslubiy asosi. Magistrlik dissertatsiya ishini bajarishda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident I.A.Karimovning Farmonlari, Qarorlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining me'yoriy hujjatlari, shuningdek, tadqiqot ishida mamlakatimiz va chet ellik iqtisodchi olimlarning mavzu doirasidagi ilmiy ishlari, tavsiyalari va ularda qo'llanilgan metodologik tamoyillar asos qilib olindi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida statistika va iqtisodiy tahlilning qiyoslash, guruhlash, zanjirli almashtirish, indeks, qayta hisoblash, tanlab

kuzatish korrelyasiya-regressiya kabi usullaridan hamda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv kabi uslublardan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Turistik xizmatlar tushunchasi, tavsifi va tasnifining nazariy masalalari ilmiy - nazariy jihatdan isbotlanganligi;

- O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o'rni va ahamiyatini aniqlash yo'llari;

- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar tahlili;

- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining mintaqa iqtisodiyotiga ta'siri holati yoritib berilganligi;

- Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sifati va xizmatlar hajmini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbekistonda jumladan Samarqand viloyatida turistik xizmatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xususan:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turistik xizmatlarning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati, ahamiyati yoritilgan;
- turistik xizmatlarning mohiyati nazariy - metodologik jihatdan yoritilgan;
- turistik xizmatlarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;
- Xalqaro turizmning hozirgi holati va O'zbekistonda uni rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy - uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan;
- turistik xizmatlarni davlat tomonidan takomillashtirish yuzasidan ilmiy - amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda asoslangan nazariy xulosalar va takliflar turistik xizmatlar sohasida mavjud muammolarni

yechish borasida ishlab chiqilgan takliflar, ilmiy tavsiyalar, uslubiy yondashuvlar, Samarqand viloyatida turistik xizmatlarni rivojlantirishda va ushbu sohadan tushayotgan tushumlar miqdorini ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqishda uslubiy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turistik xizmatlarning sifatini va turlarini oshirishga oid me'yoriy xujjatlarni, turistik xizmatlarning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha, hamda sohaga oid statistik ma'lumotlarni xujjatlashtirishni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Magistrlik dissertasiyasidagi nazariy qarashlar "Turizm iqtisodiyoti", "Turizm asoslari", kabi fanlardan o'quv dasturlari va adabiyotlarini tayyorlashda muhim manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan oliy va o'rta maxsus kasb ta'lim tizimida, servis va xizmatlar sohasida iqtisodchilar, menejerlar, marketing sohasi xodimlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijasi bo'yicha ishlab chiqilgan Samarqand viloyat hokimiyati tomonidan Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining rivojlanishi yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalarni «Samarqand viloyatida 2012-2016 yillarda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanish uchun qabul qilingan shuningdek, tadqiqot natijalaridan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'quv jarayonida ham qo'llanilmoqda.

Ishning sinovdan o'tganligi. Tadqiqot natijalari Samarqand iqtisodiyot va servis institutida o'tkazilgan "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida (2014-y21-23 aprel) "Xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanish muammolari" mavzusidagi iqtidorli talabalar va magistrnlarning ilmiy - amaliy anjumanida (2014 yil 28-30 aprel), "Iqtisodiyot va xalqimz hayot sifatini yuksaltirishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy - amaliy

konferensiyasida (2015 yil 20-21 fevral) ma'ruza qilingan va takliflar iqtisodchi olimlar tomonidan ijobiy baholanib, anjumanlarning ilmiy - nazariy va amaliy tavsiyalarida o'z ifodasini topgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqotning ilmiy - amaliy takliflari va mazmuni yuzasidan 3 ta konferensiya materiallarida tezislar Respublika ilmiy ishlar to'plamida maqolalar chop etilgan. Chop etilgan umumiy ishlarning umumiy xajmi 1,2 bosma taboqdan iborat.

Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi va xajmi. Magistrlik dissertasiyasi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning xajmi 91 betni tashkil etib, 24 ta jadval, 10 ta rasm va 2 ta ilovani o'z ichiga oladi.

1-bob. Iqtisodiyotni rivojlantirishda turizm sohasining o'rni va turistik xizmatlar tushunchasining nazariy masalalari.

1.1 Turistik xizmatlar tushunchasi, tavsifi va tasnifining nazariy masalalari.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti avvalgi bozor tizimidan farq qiladi, chunki oldin yagona tovar bo'lib moddiy mahsulot, aniqrog'i uning torgina qismi - xalq iste'mol tovarlari hisoblanar edi. Yangi munosabatlar kapital bozori, ishchi kuchlari xizmat bozori va shu kabi bozorning yangi elementlarini o'zlashtirishni talab etadi. Chet elda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez taraqqiy etuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-80 foizni tashkil etadi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 70 foizi shu xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2005 yilda 38,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkichning miqdori 54,0 foizni tashkil qildi va ushbu sohada band aholining 50 foizdan ortiq qismi faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashmoqda.

Turizm xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli bo'lib, iqtisodiyotning tezlik bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda turizmning yuqori sur'atlar bilan o'sishi, katta hajmdagi valyuta tushumlarini ta'minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etib, mamlakat turizm industriyasining rivojlanishiga ham imkon beradi. O'zbekistonda turizm bozorini o'rganish va rivojlantirish uchun, avvalo turistik xizmatlarning mohiyatini aniqlash zarur.

Bevosita turistik xizmatlarning o'ziga to'xtalishdan avval turizm va xizmat tushunchalariga aniqlik kiritish zarur.

Turizm deganda jismoniy shaxslarning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)ga aytiladi.

Turizm - bu odamlarning bo'sh vaqtlarida o'z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o'z mamlakatlari ichida ta'ssurot va dam olish, sog'liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayoxat qilishlaridir.

Turizm fransuzcha tour so'zidan olingan bo'lib, sayr - sayohat ma'nosini anglatadi.

Zamonaviy turizmni o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo'ladi(1- ilova). Jumladan, geografik belgilari, turistik oqim yo'nalishi, safar maqsadi, xarakatlanish usuli, turistilarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo'yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tavsiflash maqsadga muvafiqdir.

Bugungi kunda xizmat tushunchasi bo'yicha ko'p ta'riflar mavjud. Jumladan, I.S.Tuxliyev va N.E.Ibodullayevlarning fikricha "xizmat termini xalqaro standartlarda berilishicha - bu ijro etuvchi va istemolchi o'rtasidagi bevosita o'zaro tasirning natijasidir, hamda iste'molchi ehtiyojini qondirish bo'yicha ijrochining shaxsiy faoliyati natijasi hisoblanadi. Bu tushuncha o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Xizmat iste'molchilari va ijro etuvchilarning o'zaro ta'siri;
2. Ijrochilarning o'zlari tomonidan xizmat ko'rsatish jarayoni (ya'ni ma'lum ishlarni bajarish);
3. «Qayta tashkil qilingan mahsulot» yoki «xizmatlar natijasi» ko'rinishidagi ushbu faoliyat natijalari".

F.Kotler esa "xizmat - bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan, asosan sezilmaydigan va biror narsaga egalik hissini bermaydigan istalgan chora-tadbirlar yoki harakatli foyda", - deb hisoblaydi.

S.I.Ojegov rus tili lug'atida: "xizmat - bu naf keltirish yoki boshqa bir kishiga maishiy qulaylik yaratish harakati", - deb ta'riflaydi.

RAFatxutdinov esa, "xizmat - bu bajaruvchi va iste'molchining o'zaro, kelishilgan faoliyati bo'lib, bajaruvchining iste'molchi ehtiyojlarini qondirishdagi faoliyati natijasidir", - deb ta'riflagan.

Mamlakatimiz olimlaridan J.M.Qurbonov "xizmat - jamiyatda bo'ladigan maxsus harakat, uning bajarilishida albatta falsafiy kategoriya hisoblangan insonning insonga yaxshilik qilish harakati har ikkala tomonga ham manfaat keltirishi kerak", - deb ta'riflaydi.

E.S.Fayziyev xizmatga quyidagi ta'rifni bergan: "xizmat - bu insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu faoliyat mahsulotda gavdalanishi (moddiy xizmatlar), hamda mehnat jarayonining o'zida iste'mol qilinadigan foydali mehnat samarasi sifatida (nomoddiy xizmatlar) namoyon bo'ladi...".

Umuman xizmatlar bu - ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste'mol jarayonida yuzaga kiyeladi va alohida holda bolmaydi. Bu xizmatning tovar bilan asosiy farqidir. Bundan tashqari, Tovar iste'molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmatda esa iste'molchi bevosita xizmatning paydo boladigan yeriga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo'lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Bevosita turistik xizmatga berilgan ta'riflarni oladigan bo'lsak "Davlat standarti ta'rifiga ko'ra, turistik xizmatlar - sayyohlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi turizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir".

M.Q.Pardayev va A.A.Rahimovlarning ta'riflashicha "Turistik xizmatlar deyilganda, turistik mahsulotlar va xizmatlarning iste'molchilari (turistlar) bilan ularni ishlab chiqaruvchilar (turfirmalar va turistlarga xizmat qiluvchi boshqa

sub'yektlar) o'rtasida sodir bo'ladigan turistik maxsulotlar va xizmatlarni iste'mol qilish jarayonidagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi".

Turistik xizmatlar - turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yonaltirilgan harakatlar to'plamiga ega, ular turizm maqsadlariga, xarakteriga va turistik xizmatning qanday yo'naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo'lmashligi kerak.

Turistik xizmatlar hozirgi tartib bo'yicha pulli xizmatlar tarkibiga kiradi. Mazkur xizmatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- aholining yo'lovchi tashish transporti xizmatlarini, sayyohlik-mehmonxona majmui, sayyohlik markazlari, mehmonxona, sayyohlik bazalari, pansionat, kempinglarda yashash va ovqatlanishni o'z ichiga olgan sayyohlik yo'nalishlar hamda ekskursiya xizmatlari yo'llanmasi uchun to'laydigan haqi;

- boshqa vazirliklarning ijaraga olingan joylashish vositalar va fuqarolarning shaxsiy uy-joylarida yashash;

- ekskursiya, sayyohlik-sog'lomlashtirish xizmatlari;

- madaniy-ommaviy xizmat va shu kabilar;

- yuqoridagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan sayyoh va ekskursantlarga ko'rsatiladigan, yo'llanmalar qiymatidan ortiqcha haq evaziga ular qo'shimcha to'laydigan haqi;

- aholining xalqaro sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarga sayyohlik-ekskursiya yo'llanmalar uchun firma, agentlik, kompaniyalarga yo'llanma qiymati ustiga qo'shimcha to'laydigan haqi.

- axolining xorijga borish uchun viza, passport va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to'laydigan haqi.

Demak, xizmat - bu bir kishining ikkinchi kishi uchun qiladigan ma'lum ishi, deb tushuniladi.

Turizm xizmatlari xizmat ko'rsatish sohasida alohida mavqega ega va mamlakatimizda hozirgi paytda turizm faoliyatiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Turistik xizmat - turistlarni mos ravishdagi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha turizm korxonasi faoliyati natijasi hisoblanadi. Turizm korxonasining ishi barcha sayohatlarni tashkil qilish bilan birga alohida xizmatlarni tashkil qilishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risada"gi Qonunida turizm xizmatlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Turistik xizmatlar -turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovkatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga karatilgan boshqa xizmatlar".

Xizmat terminidan tashqari yana adabiyotlarda servis atamasi ham uchraydi va uning ma'nosini har kim har xil talqin qilmoqda. "Servis inglizcha service so'zidan olingan bo'lib, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish"ni anglatadi. Ruscha o'zbekcha lug'atda "servis - servis (aholiga xizmat ko'rsatish, xizmat)", deb ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, servis so'zi xizmat sohasi bilan hamohang, bir-biriga o'xshash sinonim so'zlardir.

Demak, turizm xizmatlari tushunchasi xizmat ko'rsatish sohasidagi maqsadli harakatlar majmui sifatida turist yoki ekskursant (turistik-ekskursiya xizmatlari) ehtiyojini ta'minlash, qondirishga qaratilgan, turizm maqsadiga, turizm xizmatlari, turlar, turistik mahsulot tavsifi va yo'nalishiga javob beradi. Bu tushuncha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xizmatni taklif etuvchi va turist o'rtasidagi o'zaro aloqani;
- ijrochi tomonidan xizmatlarni taklif etish jarayoni (ya'ni ma'lum ishni bajarishi);
- ushbu harakatlarning "qayta shakllangan xizmat" yoki "xizmat natijasi" sifatida namoyon bo'lishi.

Turizm xizmatlarini yaratishda tabiiy, ijtimoiy-madaniy va inson resurslarining uyg'unlashuvi yuzaga keladi va ma'lum iste'molchilar guruhiga yo'naltirilgan

bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, turizm xizmatlarining moddiy tovaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu xususiyatlar faqat turizm xizmatlariga xos bo'lib, ularni taklif etish jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatadi (1.1.1-jadval).

Turistik xizmat tarkibiga xizmatlarni buyurtma qilish, tashish, joylashtirish va boshqa barcha rasmiylashtirish ishlari, tashib berishning barcha turlari, transfer, ovqatlantirish, ekskursiya va attraktsionlar, tibbiy ko'rik va sug'urta, tarjimon xizmatlari, uchrashuvlar va boshqalar bilan ta'minlash kiradi.

Har bir turning xizmatlar doiras iturlicha bolib, dastur bilan byelgilanadi va har bir xizmatning oz ichiga kiruvchi yana boshqa juda kop elementlari boladi.

Mutaxassislarning fikriga qaraganda qo shimcha turistik xizmatlar ham bo4ib, ularning soni 400 dan ortiq hisoblanadi.

1.1.1 - jadval

Turizm xizmatlari xususiyatlari va ular bilan bog'liq bo'lgan turizm korxonalarini boshqarishning o'ziga xosligi

Turizm xizmatlari xususiyatlari	Xususiyatlar mazmuni	Turizm korxonalarini boshqarishning o'ziga xosligi
Xizmatning sezilmasligi	Turistik xizmatlar moddiy maxsulot bo'lib hisoblanmaydi. Ular ijtimoiy — madaniy (nomoddiy) sohalarga tegishli bo'ladi, extiyojini qondirish bo'yicha xizmatlarni ijro etuvchilar faoliyati aniqlaydi. Ularni harid vaqtida ko'rish yoki baholash mumkin emas.	Mijozlar ishonchini qozonish uchun xizmat ko'rsatuvchi korxona reklama faoliyati orqali o'z xizmatlarining ahamiyatli tomonlarini ta'kidlab o'tishi, foydali chegirma va sovg'alarga mijoz diqqatini jalb qilishi, mashhur kishilarni reklamaga jalb qilishi kerak bo'ladi.

Servis va iste'molchining o'zaro bog'liqligi	Xizmat iste'molchi va ijro etuvchilarning o'zaro ta'siri natijasida tashkil topganligi sababli, turistik xizmatlarni ko'rsatish jarayoni (ishlab chiqarish) iste'mol bilan birga parallel ravishda yuz beradi.	etuvchi xodimlar bilan uzviy bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish jarayonida iste'molchi ishtirok etar ekan, sotuvchi (ijrochi) nimani, qanday taklif etayotganligini aniq bilishi shart. Mijoz xizmatdan foydalanishi jarayonida sotuvchining harakatlari, malakasi, bilimi xizmatlarning takroriy iste'molini belgilab beradi.
Xizmat sifatining doimiy emasligi	Xizmatlar sifati uni taklif etayotgan mutaxassislar malakasi, xushmuomilaligi, kommunikabelligi va har bir mijozning individual talablari hisobga olini-shiga bog'liq.	Xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qiluvchi korxonaning nazorat siyosatini ishlab chiqish, korxonaning firma stilini ya'ni, nomi, tovar belgisi, uning o'ziga xos rangi, logotipini yaratish, xodimlarning malakaviyligi

Turistik xizmatlar tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunday xizmatlar tarkibi asosiy va qo'shimcha xizmat bilan farqlanadi. Turistik korxonalar ko'rsatadigan asosiy xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- Tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar;
- Joylashtirish;
- Turistlarni ovqatlantirish;

Turistik korxonalar ko'rsatadigan qo'shimcha xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- Sayohatni (ekskursiyani) tashkil etish bo'yicha xizmatlar;
- Turistlarni sug'urtalash bo'yicha xizmatlar;
- Gid (turistlarga izox, tushu irish beruvchi shaxs), gid- tarjimon xizmatlari;
- Turistlarni yashab turgan joyidan uning vaqtinchalik kelib tushgan joyigacha -mamlakatgacha va teskari (transfer) tashish bo'yicha, hamda sayohat

shartlarida ko'zda tutilgan mamlakat xududida (vaqtinchalik kelgan joyidan) istalgan boshqa tashishlar bo'yicha xizmatlar;

- Texnikani ta'mirlash bo'yicha xizmatlar;
- Prokat bo'yicha xizmatlar;
- Valyuta ayirboshlash;
- Telefon xizmati;
- Pochta xizmati;
- Maishiy xizmat ko'rsatish xizmatlari;
- Plyajlardan foydalanish xizmatlari va h.k.

Bunday bo'linish iste'mol xususiyatlari nuqtai nazaridan olib qaraganda, ahamiyatli farqlar yo'qligi sababli shartlidir. Yo'llanmada qayd qilingan va asosiy dasturga kiritilgan xizmatlar asosiy hisoblanadi. Qo'shimcha xizmatlarni yetib kelgan joyida turistni o'zi mustaqil harid qiladi. Ular yo'llanma narxiga kirmaydi.

Ko'pgina holatlarda turistik asosiy xizmatlarga transport xizmatlari, joylashish va ovqatlantirish xizmatlaridan tashkil topadi. Ammo, tanishuv (ekskursion), malakaviy ish turizmi, sport, diniy maqsadlarda sayohatlar tashkil etilganda qo'shimcha xizmatlar ham ushbu turlarning asosini tashkil etadi. Asosiy va qo'shimcha xizmatlar o'rtasidagi farq, ularni dastlabki harid qilingan yo'llanma paketiga kiritilgan xizmatlardan tashkil topadi. Turistlarga nomoddiy xizmatlardan tashqari moddiy xizmatlar yoki maxsus mahsulotlar taqdim etilishi mumkin, masalan shahar rejasi, metro xaritasi, suvenirlar, turistik jihozlar.

Shunday qilib, O'zbekistonda turizm bozorini o'rganish va rivojlantirish jarayonida, kelgusida turizmni asl mohiyatini belgilovchi quyidagi uchta jihatlarni hisobga olishni hozirgi davr talab qilmoqda;

- dam olish va ko'ngil ochar faoliyat sifatida;
- bevosita turizmga xizmat qiluvchi tarmoqni qamrab oluvchi biznes sifatida;
- turizm bozoriga yo'naltirilgan moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmog'i korxonasining faoliyati sifatida.

1.2 O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o'rni va ahamiyati.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, turizm taraqqiyoti uchun faqatgina jozibador maskanlarning mavjud bo'lishining o'zi yetarli emas. Mahalliy turistik infratuzilmani ham yetarli rivojlantirish lozim, ya'ni hududda ichki turizmning ham o'rni katta bo'lib, undan daromad olish, mahalliy aholi talablarini qondirib, unga xizmat ko'rsatish, aholining savyasini oshirish, odamlarni ish o'rinlari bilan ta'minlash imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Turistik xizmatlar turizm sohasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli turizm rivojlanishi turistik xizmatlarning kengayishiga olib keladi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, turizm umumiy iqtisodiy o'sishga, kam taraqqiy etgan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Bunday hududlarda turistik markazlarni ochish ko'pgina davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Davlat miqyosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli O'zbekiston yil sayin turizm o'lkasiga aylanmoqda. Bu, o'z navbatida, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, xalqimizning boshqa millatlar bilan hamkorligini kuchaytirish imkonini bermoqda. O'zaro hamkorlikning kuchayishi esa mamlakatimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hamda turistik xizmat eksportining o'sishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga va bu sohada qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish uchun sharoitlar yaratilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Quyidagi 1.2.1-jadvalda aholiga ko'rsatilgan yuqori ko'lamli xizmatlarning mamlakatimiz mintaqalari bo'yicha rivojlanish darajasi aks ettirilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanishiga nazar tashlasak, 2012 yilda turistik xizmatlar 118,3 foizga o'sdi va 236,9 milliard so'mni tashkil qildi.

[illegible]

9	Surxondaryo viloyati	114,2	120,4	116,5	117,3	122,0	120,7
10	Sirdaryo viloyati	115,1	124,4	117,0	112,3	116,2	126,6
11	Toshkent viloyati	114,4	114,2	116,5	112,2	122,2	132,0
12	Farg'ona viloyati	113,6	116,5	116,0	117,5	120,0	125,6
13	Xorazm viloyati	115,9	119,1	115,9	116,8	120,0	121,0
14	Toshkent shahri	117,4	117,2	117,0	114,8	114,5	124,3

*yilning 1-yanvar holatiga

Turizm iqtisodiyotning yirik sektorlaridan biri bo'lib, Barcha rivojlangan davlatlar uning o'sishidan manfaatdordir. Chunki, turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ustuvorliklarga ega:

- mahalliy ishchi kuchlarini malakali mehnat va yashash sharoitlari bilan ta'minlash manbai;

- bozorni shakllantirish hamda kapital investitsiyalarning oqib kelish mexanizmi;

- qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), kommunikatsiya (uyali, tele va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro andozolardagi temiryo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (avto yoqilg'i quyish stantsiyalari) kabi sohalarga yangi texnologiyalar va now joriy etish vositasi;

- milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari;

- mamlakatda va hududda siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy holatni barqarorlashtirish omillari;

- tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni asrash usullari;

- davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari.

Turizm mamlakatga valyuta kirish imkoniyatlarini kengaytirib, yangi ishchi o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani yaxshilab, mintaqa rivojiga va iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizmdan yuqori darajada foyda olish maqsaddida har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlaridan biri bo'lgan turizm siyosatini ishlab chiqadi.

Turistlar tomonidan tushadigan valyuta miqdori mamlakatdan olib chiqiladigan valyuta summasidan ortiq bo'lsa bu ijobiy jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda pul mablag'larining kamayish xollari mavjud, chunki ishlab chiqarish sohasining pasayishi, otellarda, turistik tarmoqdagi transport korxonasi va tovar yetkazib beruvchilarga jihozlar, asbob-uskunalar va ba'zi xizmatlarni chet el ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilib olishga to'g'ri kelmoqda.

Turizm rivojining navbatdagi ijobiy jihati bo'lib turistlar hisoblanadi. Ular ham ko'pgina aholi singari soliq to'lashga majburdir. Chunki, sayohatchilar asosan boshqa mintaqalardan tashrif buyuradilar, ularni xarajatlari qabul qilgan xudud uchun kengaytirilgan soliq bazasini tashkil qiladi. Sotishdan olinadigan odatdagi soliqlardan tashqari turistlar bevosita to'lovlar ham qiladilar. Aeroport yig'implari, chiqish va bojxona poshlinalari, viza (ruxsatnoma) yig'implari - turistlarni soliqqa tortishning odatda foydalanadigan ayrim misollardir xolos.

Ushbu o'ziga xos vaziyatlardan tashqari ham turistlardan, ham mahalliy aholidan yig'iladigan oddiy soliqlar turistik xarajatlar natijasida amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan qabul qiluvchi mintaqa hukumati turizmni mazkur aspektidan kelayotgan foydani qancha miqdorgacha maksimallashtirish chegarasiga amal qiladi. Bu cheklanishlar ikki xilda bo'ladi ijtimoiy va iqtisodiy.

Ijtimoiy cheklanishlar mintaqada turindustriyani rivojlantirish uchun mahalliy aholidan olinadigan soliqlarni oshirish tufayli tug'iladi. Iqtisodiy cheklanishlar esa turindustriya rivojlanishi natijasida tug'iladigan foydalanilamagan imkoniyatlarni potensial xarajatlari ko'rinishida aks ettiriladi. Ular qabul qiluvchi mintaqa hukumati oldida turgan muammolarni optimallashtirishni chuqurroq tushunishga erishishni diqqat bilan tadqiq etishga xizmat qiladi.

Turli-tumanlik bu iqtisodiy barqarorlikni asosidir. Agar bitta tarmoq tub iqtisodiy turg'unlikni boshidan kechirsa, boshqasi gullab yashnaydi va shu tarzda inqiroz imkoniyatlari kamaytiriladi yoki uning oqibatlari bartaraf etiladi.

Bundan turizm iqtisodiyot diversifikasiyasiga imkoniyat yaratish o'rniga qishloq xo'jalik sektorining o'rnini bosadi.

Ko'p sabablarga ko'ra turizm o'rnini bosuvchi tarmoq bo'lishi nomaqbul holat hisoblanadi.

Birinchidan o'z mohiyati bo'yicha turizm-mavsumiy harakterga ega. Ba'zida ehtiyojidagi mavsumiylik tebranishlarni pasaytirish mumkin, lekin ulardan to'liq qochib qutulib bo'lmaydi. Shuning uchun agar turizm - mintaqadagi asosiy tarmoq bo'lsa, unda mavsumning pastligi bandlikni jiddiy muammolarini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, turizm va ekskursiyaga ehtiyoj aksariyat turistlar daromadi va xoxishiga bog'liq bo'ladi. Ikkala mazkur omil ham qabul qiluvchi mintaqa nazoratidan tashqarida bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, mintaqaning yagona turizm industriya sektoriga to'la bog'liq bo'lib qolishi tug'ri xolat hisoblanmaydi.

Buning ustiga turizm ma'lum ijtimoiy xarajatlarni va qabul qiluvchi mintaq va uning aholisi zimmasiga tushuvchi atrof muhitni qo'llab-quvvatlashga qo'shimcha sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi. Turizmni shiddatli rivojlanishi va unga to'la bog'liqlik quyidagi ta'rifni keltirib chiqaradi: agar keyingi rivojlanishni to'xtatib qo'ysa bu iqtisodiy turg'unlik xavfini olib keladi; agar turizmni kelajakda rivojlantirishni cheklab qo'ymasa, unda tabiiy va modaniy resurslardan xaddan ziyod foydalanganlik natijasida kamayib qoladi, yaroqsiz holga keladi va qadrsizlanadi. Bunday holatlarda qoidaga ko'ra qarorlar qabul qilish juda murakkabdur.

Ba'zida rivojlanayotgan mamlakatlar turizmga juda optimistik tarzda yondashadi. Turizmni rivojlantirishga yo'naltirgan faol investision dasturlarni hayotga tatbiq etadi. Ma'lum vaziyatlarda bunday yondashuv mamlakatni yanada ahamiyatli investisiyalarga bo'lgan ehtiyojini inkor etadi. Masalan, turizmga sarflangan pul mablag'lari ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarga sarflanishi mumkin edi.

Bazan turizm mintaqada inflyatsiya darajasini o'sishiga sababchi ham bulishi mumkin. Turistlar boshqa xudud yoki boshqa mamlakatda ishlab topilgan o'z mablag'larini mazkur turistik mintaqa iqtisodiyotiga qo'yadilar. Bu o'z navbatida mintaqa daromadlarini oshirsa ham (yuqorida qayd qilinganidek) shu bilan birga inflyasion bosimni oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra, turistik mintaqalarda ayniqsa yerga narxlar juda tez o'sadi. (narx o'sishi 20000 % gacha yetishi mumkin). Turistik mintaqada mehnat ta'tili vaqtida chet eldan kelgan turistlar yashashlari uchun yuqori narxlarni to'lashi mahalliy aholining turar joyga bo'lgan talabi birdan tushib ketishi mumkin. Mahalliy fuqaro (nisbatan katta bo'lmagan daromadga ega bo'lgani uchun) turistik industriya taraqqiy etgan xududlar turar joy bozoridan siqib chiqarilishi mumkin.

Shu tarzda turizm iqtisodiy taraqqiyot instrumenti sifatida kattagina saloxiyatga ega bo'lsa ham, lekin barcha iqtisodiy kamchiliklardan da'vo bo'lib hisoblanmaydi. Hukumat shularni hisobga olib, turizmdan kelayotgan foydani optimallashtirish uchun barcha say-xarakatlarni amalga oshirishi zarur. Shuni qayd qilish kerakki, rivojlanayotgan davlatlar uchun bu kamchiliklarni xal qilish ancha qiyin kechadi iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarga qaraganda, chunki rivojlangan davlatlar turizm xarajatlarini barchasini osonlik bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'lgan sog'lom iqtisodiyotga ega.

Shunday qilib, har bir davlat uchun turizmni rivojlantirish afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- mintaqaga pul oqimlarini oshirish, jumladan chet el valyutasi oqimlarini kirib kelishi;
- yangi ishchi o'rinlarini yaratish;
- yalpi milliy mahsulotni o'sishi;
- ham turistlar, ham mahalliy aholi tomonidan foydalanishi mumkin bo'lgan dam olish tarkibini shakllantirish;
- kapitalni jumladan chet el kapitalini jalb qilish;
- qabul qiluvchi xudud soliq yig'imlarini oshishi

Turizmni rivojlantirishning kamchiliklari quyidagilarda aks etadi:

- mahalliy tovar va xizmatlarga, yer va boshqa tabiiy resurslarga hamda ko'chmas mulkka narxlarining o'sishiga ta'siri;
- turistik importda chegaradan tashqariga pulni oqib ketishiga imkoniyat yaratadi;
- ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi;
- boshqa sohalar rivojiga zarar yetkazishi mumkin.

1.3. Xalqaro turizmning holati va O'zbekistonda uni rivojlanish istiqbollari.

O'zbekiston Yevroosiyo mintaqasida turistlar uchun yangi turizm markazi hisoblanib, kelajakda xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish borasida qulay strategik imkoniyatga egadir. Boy tabiiy xom ashyo imkoniyatlari, erkin mehnat resurslarining mavjudligi, siyosiy barqarorlik va mavjud xalqaro xavo yo'llari, shuningdek aloqa va kommunikatsiya tarmog'i turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun keng imkon yaratadi. Shuningdek, tabiiy iqlim sharoiti esa turistlarni yil bo'yi qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Xalqaro turizm ham jahonda eksport tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm dunyoda aholini ish bilan ta'minlaydigan asosiy kuchga aylandi. U jahon infrastrukturasiga katta miqdorda investitsiyalarni jalb etmoqda. Bu esa mahalliy aholining ham, tashrif buyuruvchilarning ham turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Turizm davlat g'aznasiga soliq ko'rinishidagi pul tushumlari ko'payishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunga kelib turizm sohasida erishilgan yutuqlar uning alohida bir industriyaga aylanishiga olib keldi. BTT ma'lumotlarga qaraganda, 2012 - yilda jahon turizm harakatlari 1035 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2013 - yilda bu ko'rsatkich 5,0% ga oshib dunyo bo'yicha 1087 million kishiga yetdi. 1995-yildagi 528 milion kishi bo'lgan ko'rsatkichdan ikki marotaba ko'p bo'lgan bu ko'rsatkich, ilk bor 2012 yilda qayd etilgan edi.

Shuningdek xalqaro turizmdan tushgan daromad dunyo bo'yicha 2013 -

yil 1-yanvar holatiga 1078 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2014 - yil ning xuddi shu davriga kelib bu ko'rsatkich 1179 AQSh dollari miqdorida bo'ldi va o'tgan davrga nisbatan 5 %ga ortdi.

Turizm industriyasida vujudga kelgan bu vaziyatni BTT ning bosh kotibi Fransesko Frangiali «Bizning optimistik taxminlarimizga nisbatan turizm, asrdan-asrga juda tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda va sayohat qilish uchun ko'plab sabablar yuzaga keldi» deb ta'kidlagan edi.

Quyidagi 1.3.1- rasmda dunyodagi turistlar harakati va turistik faoliyat natijasida tushgan tushumlar dunyo mintaqalari bo'yicha ko'rsatilgan .

1.3.1-rasm.

XALQARO TURIZM

Xalqaro tashrif buyuruvchi turistlar (XTT): 1087 million kishi

Xalqaro turizmdan tushgan daromad (XTD): 1159 milliard AQSH dollari



Manba: UNWTO tourism highlights 2014 edition. BTTning turizm bo'yicha yillik xisoboti.

Aholini ish bilan ta'minlash borasida bu sohaning ahamiyati katta. Jahonda 105 mln. kishi turizm sohasiga oid bo'lgan ish bilan ta'minlangan (1.3.2-rasm).

Turizm rivojlanishi faqatgina pul mablag'lari oqimi ko'rinishidagi soha emas, balki davlatning boshqa sohalari - xalq xo'jaligi, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, aloqa, transport kabi sohalarning ham rivojlanishiga turtki bo'ladi.

1.3.2-rasm



Manba: www.wttc.org butun jahon turizm va sayyohlik kengashi rasmiy sayti ma'lumotlari.

Xalqaro turizmning rivojlanishi haqidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2014 yilda jahon xo'jaligida turizm sohasidan olingan foydaning umumiy hajmi 2,4 trillion AQSh dollarini tashkil etgan va butun jahon YaMMning 3,1% qismi (1.3.3-rasm) aynan shu sohaga to'g'ri kelmoqda.

1.3.3-rasm

2014 yilda turizm soxasining jahon xo'jaligiga ta'siri

Hilliard AQSh dollari

7,000 ' 5,000

idiiiiiii
X i t t i

Soha turi	Jahon YaMM dagi miqdori mlrd.AQSh dol.	Jahon YaMM dagi ulushi %
% Avtosanoat	\$914	1.2%
& Kimyo sanoati	\$1.590	2.1%
(D Sayyohlik va turizm sanoati	82,365	3.1%
Дт* Bank sohasi	\$2.43S	3.2%
1 Ta'lim sohasi	\$2,605	3.4%
Λ Qishloq xo'jaligi	\$3,111	4.0%
u Ruda qazib olish	\$3.897	5.1%
u Savdo sohasi	\$4.261	5.5%
Sk Moliyaviy xizmatlar	\$4.78S	6.2%
Jami	577,085	100%

Manba: www.wttc.org butun jahon turizm va sayyohlik kengashi rasmiy sayti ma'lumotlari

Turizmni rivojlanishi zamonaviy mehmonxonalar, restoranlar, do'konlar, yo'llar, oromgohlar qurilishi, shaharlar obodonlashtirilishi, tarixiy yodgorliklarning qayta ta'mirlanishi va atrof - muhitni asrash borasida katta ahamiyatga ega. Bu omillarning barchasi esa davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy yuksalishiga va jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy egallashiga yordam beradi.

Yurtimiz turistlarga istagan xizmat turini ko'rsatish imkoniyatiga ega. O'zbekiston turistik imkoniyatining 33%ini arxitektura yodgorliklari tashkil qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarimiz ochiq osmon ostidagi o'ziga xos muzeylar hisoblanadi. Ular yurtimizning ko'p asrlik tarixini o'z ichiga qamrab olgan. hozirgi kungacha saqlanib qolingan o'lkamizga oid yodgorliklar Misr, Hindiston, Qadimgi Gresiya va Rim yodgorliklariga tenglasha oladi. Buyuk Ipak yo'lining shox tomiri ham yurtimizdan o'tganligi bejiz emas, albatta.

O'zbekiston Respublikasiga ko'proq chet el turistlarini jalb etish maqsadida turistik tashviqot ishlari boshlab yuborilgan. Bunda axborot materiallarining soni va sifatini oshirish katta ahamiyatga ega. Hozirda "Dunyo bo'ylab" televizion kanali o'z ko'rsatuvlarini muntazam ravishda tashkil qilib, ularni keng ommaga namoish qilib kelmoqda.

Turizm mahsulotlarini horijda tanitish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi "O'zbekturizm" MKsi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning turistik tovar belgisini tasdiqladi(1.3.4-rasm). Patentni olish bo'yicha talabnoma MK tomonida 2013-yilning iyun oyida berilgan edi. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston uchun ishlab chiqilgan logotip ko'pgina turistik tadbirlarda keng qo'llanilgan bo'lsada, u o'zining rasmiy statusiga 2014 yilning may oyida ega bo'ldi.

Bu kabi marketing tadbirlari turistik mavsumlarning kengaytirish, vatanimizga keluvchi turistlarning oqimlari muddatini optimallashtirish, hamda O'zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o'ziga hos bo'lishini ko'rsatib berishda muhim ro'l o'ynaydi.

1.3.4-rasm



Manba: www.uzbektourism.uz "O'zbekturizm" MKsi rasmiy sayti

Turistlarni yanada ko'proq jalb etish uchun mehmonxonalarda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish kerak. Buning uchun esa turistik soha mutaxassislarini tayyorlashni yo'lga qo'yishga katta ahamiyat berish kerak.

Turistik biznesni tanlagan zamonaviy yoshlar bu serdaromad sohaning ertangi kunini ko'zlab, O'zbekistonning kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'z o'rnini egallashiga hissa qo'shadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining tashkil topishi to'g'risidagi qarori bilan 1992 yil iyul oyida

"O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi yuzaga kelgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 fevraldagi qarori bilan "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasini nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustdagi "Turistik tashkilotlarning faoliyatini rivojlanishini tashkil etish" to'g'risidagi qarori bilan O'zbekiston Xususiy sayyohlik tashkilotlar Uyushmasi "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining birlashma a'zosi sifatida qabul qilindi.

Hozirda yurtimizda turizm sohasida keng ko'lamdagi amalga ishlar oshirilmoqda, jumladan mehmonxona va ko'rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish yordamida turmahsulot sifatini oshirish, shuningdek mavjud yodgorliklarning qabul qila olish imkoniyatlarini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mehmonxonalarda joylar taklif qilish imkoniyatlarini tahlil qilinganda mehmonxona xo'jaligini ta'mirlash birlamchi vazifalardan biriga aylanishi lozimligini ko'rsatdi.

2-bob. Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining rivojlanish holati.

2.1 Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi.

Mamlakat yoki uning muayyan ma'muriy xududning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish holatiga baho berishda, dastlab uning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki xududning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish holati va istiqboli ko'p jihatdan ma'muriy xududning geografik joylashuviga, demografik holatiga, ijtimoiy va iqtisodiy infrastrukturalarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Viloyatning boshqaruv, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Samarqand shahri eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan. Samarqand shahri O'zbekistonda ikkinchi yirik shahar hisoblanadi. Shahar asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan.

XIV va XV asrlar davomida bu shahar Temuriylar saltanatining poytaxti vazifasini o'tagan va o'sha davrlarda yirik ilm-fan, madaniyat markaziga aylangan.

Samarqandning tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda, O'zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xususan, 2007 yilda YuNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazrati Xizr masjidini qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

Samarqand shahrida 1997 yildan buyon har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinadigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali dunyoning barcha burchaklaridan yuzlab Sharq musiqasi sozandalari va ixlosmandlarini o'z bag'riga chorlaydi.

1938 yil 15 yanvarda tashkil etilgan Samarqand viloyatining maydoni 16,8 ming kv.km, 2015 yil 1 yanvar holatidagi doimiy aholi soni - 3 million 514 ming 800 kishi. Shundan shahar joylarda 1 million 336 ming 800 kishi (erkaklar - 663,9 ming, ayollar - 672,0 ming), qishloq joylarda 2 million 177 ming 900 kishi (erkaklar - 1097,0 ming, ayollar - 1080,4 ming).

Viloyat Respublika xududining 3,7 % ($16773^{100}:448969$)-mi, aholisining esa 11,5 % ($3514,8^{100}:30492,8$)-ini tashkil qiladi(2.1.1-jadval). Viloyat respublikaning markazida joylashgan bo'lib Jizzax, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari hamda Tojikiston davlati bilan chegaradosh hisoblanadi.

2.1.1-jadval

Samarqand viloyatining respublika ko'rsatkichlari bilan taqqoslangan ma'lumotlari, 2014 yil

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Respublika	Samarqand viloyati	Farqi (+;-)	Nisbati, %
	2	3	4	5	6	7
1.	Hududi	kv.km	448,97	16,8	432,1 2	3,7
2.	Aholisi	ming kishi	30492,8	3514,8	26978	11,5
3.	Aholining zichligi, 1 kv.km	kishi	67,9	209,2	x	x

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi va Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Viloyat xo'jaligi qadimdan yaxshi taraqqiy etgan. Hozirgi kunga kelib zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Viloyatda qurilish

materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yetakchi o'rinda turadi.

Aholining milliy tarkibida o'zbeklar ko'pchilik (86,54%)ni tashkil etadi. Bundan tashqari ruslar (1,75), tojiklar (7,99%) va boshqalar ham istiqomat qilishadi. Viloyatda 2 ta (Samarqand va Kattaqo'rg'on) shahar va 14 ta tuman bor.

2014 yilda Samarqand viloyatida barcha sohalar miqdor ko'rsatkichlarida o'sish kuzatilgan (2.1.2-jadval). 2014 yilda yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'ati

2.1.2-jadval

Samarqand viloyatida 2014 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari

(Hajmi - joriy baholarda, foizlar - solishtirma baholarda)

№	Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2013 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr	2013 y. yakuniga nisbatan %da
1	2	3	4	6	7
1.	Yalpi hududiy maxsuloti (YaHM)	mlrd. so'm	7370,9	9198,1	110,5
1.1.	Axoli jon boshiga YaHM	ming so'm	2159,8	2643,0	118,3
2.	Sanoat maxsulotlari xajmi	mlrd. so'm	3298,4	4357,2	115,7
3.	Xalq iste'moli mollari ishlab chikarish	mlrd. so'm	2121,4	2837,3	117,3
4.	Qishloq xo'jaligi yalpi maxsuloti	mlrd. so'm	3732,3	4394,1	106,9
5.	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. so'm	1813,2	2185,6	103,4
6.	Qurilish -Pudrat ishlari	mlrd. so'm	1199,6	1572,6	111,2
7.	Chakana tovar aylanmasi	mlrd. so'm	3929,2	4875,3	114,9
8.	Pullik xizmat ko'rsatish xajmi	mlrd. so'm	1744,9	2268,2	117,6
8.1.	Shu jumladan, maishiy xizmat xajmi	mlrd. so'm	215,1	288,7	121,4
9.	Maxalliy byudjet daromadlari	mlrd. so'm	759,0	883,9	114,2

10.	Maxalliy byudjet xarajatlari	mlrd. so'm	153,8	181,1	115,1
11.	Tashki savdo aylanmasi	mln \$	857,2	1063,3	109,7
11.1.	Eksport	mln \$	163,7	271,1	105,3
11.2.	Import	mln \$	693,5	792,2	111,3
12.	Yil oxiriga doimiy yashovchi axoli soni	ming kishi	3 444,8	3514,8	102,0
13.	Mexnatga layoqatli axoli soni	ming kishi	1 988,0	2007,5	102,1
14.	O'rtacha ish xaqi	so'm	904 875,9	1039910,5	113,0

Manba: Samarqand viloyat hokimligi Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

110,5 foizni tashkil etdi. Bunga, avvalo sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish sohasidagi yuqori o'sish sur'atlari, shuningdek, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish 17,3 foizga, qishloq xo'jalik 6,9 foizga, chakana savdo 14,9 foizga, pulli xizmat ko'rsatish hajmi 17,6 foizga ko'payshi hamda maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish hisobiga erishildi. Natijada viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 bandga o'sishiga erishildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 77,4 foizni, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 45,0 foizni tashkil etdi. (2.1.3-Jadval)

2.1.3-Jadval

Samarqand viloyatida 2014 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha Yalpi hududiy mahsulot tarkibi

2014 yil (yillik)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
Yalpi hududiy mahsulot hajmi	mlrd. so'm	9198,1
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	110,5
Sanoat	mlrd. So'm	1218,9
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	112,6
Qurilish	mlrd. so'm	795,8
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	111,2
Qishloq xo'jaligi	mlrd. so'm	2828,7
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	106,9
Transport va aloqa	mlrd. so'm	744,3
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	110,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	mlrd. so'm	853,9

<i>O 'tgan yilga nisbatan o'sish sur 'ati</i>	%	113,4
Boshqalar	<i>mlrd. so'm</i>	2575,3
<i>O 'tgan yilga nisbatan o'sish sur 'ati</i>	%	112,3
Soliqlar	<i>mlrd. so'm</i>	181,0
<i>O 'tgan yilga nisbatan o'sish sur 'ati</i>	%	112,3
<i>YaHMda xizmatlar hajmi ulushi</i>	%	45,0
Kichik biznes ulushi	%	77,4
Aholi jon boshiga YaHM hajmi	<i>ming so'm</i>	2643,0

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-dekabrida 1063,3 mln. AQSh dollari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,7 foizni, shu jumladan eksport 271,1 mln. AQSh dollari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 foizni, import 792,2 mln. AQSh dollari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,3 foizni tashkil qildi. (2.1.4-Jadval)

(2.1.4-Jadval)

Samarqand viloyatida 2014 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh dollari)

	yanvar-dekabr		2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
	2013 yil	2014 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	969,2	1063,3	109,7
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	259,3	346,2	133,5
boshqa xorij mamlakatlari	709,9	717,1	101,0
Eksport	257,5	271,1	105,3
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	100,5	174,4	173,5
boshqa xorij mamlakatlari	157,0	96,7	61,6
Import	711,7	792,2	111,3
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	158,8	171,8	108,2
boshqa xorij mamlakatlari	552,9	620,4	112,2

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Hisobot davrida Samarqand viloyati jahonning 103 dan ortiq mamlakatlari bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirdi va 53 mamlakat bilan ijobiy saldogga ega bo'ldi.

Samarqand viloyati eksport hajmining asosiy qismini xizmatlar tashkil etib 2013 yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 50 % miqdorida bo'lgan bo'lsa 2014 yilning mos davrida xizmatlar hajmi 0,4 % ga qisqarganini ko'rishimiz mumkin (2.1.5-jadval). Aksincha import hajmining eng kam qismi xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Bu viloyat eksport oborotidan tushayotgan tushumining asosiy qismi xizmatlar soxasiga to'g'ri kelayotganidan dalolat beradi.

(2.1.5-jadval)

**Eksport va import hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar
dinamikasi**

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		Hajmidagi o'zgarish, foiz hisobida
	2013 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr	2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
Eksport tarkibi	100	100	105,3
oziq-ovqat mahsulotlari	31,4	35,3	118,3
kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	1,4	1,4	105,6
qora va rangli metallar	0,01	0,01	109,1
mashina va uskunalar	2,4	5,0	102,2
xizmatlar	50,0	46,0	96,7
boshqalar	14,8	12,3	88,0
Import tarkibi	100	100	111,3
oziq-ovqat mahsulotlari	8,1	7,4	101,8
kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	23,4	24,3	115,5
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,1	0,1	104,6
qora va rangli metallar	3,6	3,6	112,3
mashina va uskunalar	52,5	51,9	110,1

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		Hajmidagi o'zgarish, foiz hisobida
	2013 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr	2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
xizmatlar	2,8	3,3	131,1
boshqalar	9,5	9,4	109,7

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Viloyat O'zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda "Samarqand avtomobil zavodi", "8-Mart" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "JV MAN AVTO", "BAT O'zbekiston", "Daka Teks", "Sam-Antep-Gilam", "Praga-Pivo", "Agromir Samarkand" qo'shma korxonalari, "Samarqandlift", "Sino", "Samarqandkimyo" aksionerlik jamiyatlari kabi ko'plab mamlakat ahamiyatiga molik sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dastur doirasida 3224,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi va jami xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida 17392 ta yangi ish joylari yaratilib, 1110 ta aholiga xizmat ko'rsatish shoxobchasi tashkil etildi. Viloyatda 23 678 ta turli xildagi xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalari faoliyat yuritmoqda.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Samarqand viloyatida 2014 yilda jami xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 48743 tani tashkil qilgan bo'lib, ularning salmoqli qismi qishloq va o'rmon xo'jaligida yaratilgan (30227 ta) (2.1.6-jadval).

2.1.6-jadval

Samarqand viloyatida 2015 yil 1-yanvar xolatiga xo'jalik yurituvchi subyektlar soni.

(birlik hisobida)

	Jami	Shundan				2014 yil	
		yirik		Kichik	yirik	tashkil topdi	tugatildi
		ro'y-xatdan o'tgani	faoliyat ko'rsatayotgani				

Jami	48743	2219	2201	3013	43511	3077	2538
<i>Tarmoqlar</i>							
Sanoat	3356	31	30	179	3146	497	199
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	30227	46	45	863	29318	1219	1500
Transport va aloqa	475	51	49	91	333	72	26
Qurilish	1736	18	17	129	1589	234	123
Savdo va umumiy ovqatlanish	5247	44	41	835	4368	565	340
Boshqa soxalar	7702	2029	2019	916	4757	490	350

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

2014 yilda viloyatda 1919 ta kichik biznes subyektlari tashkil etilib, kichik biznes subyektlarining soni 15,1 mingtani tashkil etmoqda (2.1.7-jadval).

Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar umumiy hajmining 57,3 foizini kichik biznes subyektlari tomonidan kiritilgan investisiyalar tashkil qildi. Qurilish ishlarining 90,7 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keldi.

2.1.7-jadval

Samarqand viloyatida 2015 yil 1-yanvar xolatiga kichik biznes subyektlari soni

(birlik hisobida)

Ko'rsatkichlar	ro'yxat-dan o'tgan	faoliyat ko'rsatayotgan	faoliyat ko'rsatmayotgan	2014 yil yanvar-dekabr	
				tashkil topdi	tugatildi
Jami	15096	12860	2236	1919	1048
<i>Tarmoqlar</i>					
Sanoat	3324	2879	445	494	197
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1352	1143	209	158	105
Transport va aloqa	424	375	49	234	26
Qurilish	1697	1388	309	70	122
Savdo va umumiy ovqatlanish	5203	4339	864	563	340
Boshqa soxalar	3096	2736	360	400	258

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2.1.8 -jadval).

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2014 yilda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturini amalga oshirish natijasida 95,0 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2.1.8-jadval


Samarqand viloyatida 2014 yilda yaratilgan yangi ish o'rinlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
	Barch yo'nalishlarda yaratilgan ish o'rinlari	kishi	95011
	<i>shu jumladan</i>		
1.	Yangi yirik ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish.	kishi	4634
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil etish	kishi	31995
	<i>shundan</i>		
2.1	Sanoatda	kishi	8232
2.2	Qurilishda	kishi	6371
2.3	Xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanishda	kishi	17392
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	kishi	11942
4.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish	kishi	20257
5.	Kasanachilik	kishi	17405
5.1	shu jumladan korxonalar bilan kooperatsiyada mehnat shartnomalari asosida	kishi	1413
6.	Ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish	kishi	7435
7.	Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash	kishi	1343

Shuni ta'kidlab o'tish joizki yaratilgan ish o'rinlaridagi salmoqli ulush kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil etishda yaratilgan ish o'rinlari (31995 kishi)ga tegishli bo'lib uning asosiy qismini xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanishda yaratilgan ish o'rinlari (17392 kishi) tashkil qiladi bu ko'rsatkich viloyatda xizmat ko'rsatish sohasining ancha yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi. Biz buni 2.1.1-rasmda, foizlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yangi ish o'rinlarini yaratishda eng yuqori ulush kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etishda yaratilgan ish o'rinlariga tegishli (33,7 foiz), fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda (21,3 foiz), kasanachilikda (18,3 foiz), yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirishda (12,6 foiz), sanoatda (8,7 foiz) qayd etildi.

2.1.1-rasm.

Samarqand viloyatida 2014 yilda yaratilgan yangi ish o'rinlari



Manba: 1.8-jadval asosida mualliftomonidan tuzildi

Insonlarning moddiy va ma'naviy xayot sifatini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va takomillashtirishda xizmat ko'rsatish sohasi muhim ahamiyatga egadir. Xizmat ko'rsatish sohasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejaydi, insonning bo'sh vaqtini ko'paytiradi, uning mehnatining ijodiy

mazmunini oshiradi, ish vaqtdan tashqaridagi oqilona bo'lmagan xarajatlarni qisqartiradi, insonlar xayotini yanada mazmunli qiladi va shu orqali aholining barcha ijtimoiy guruhlari, qatlamlarining xayotiy manfaatlarini yuzaga chiqaradi.

O'zbekistonda hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasi o'sish sur'atlari, yangi paydo bo'lgan xizmatlar turlari soni, bozor hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizni modernizasiya qilish sharoitida **xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish** ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish soxasining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini bobning 2 paragrafida ko'rib chiqamiz.

2.2 Samarqand viloyatida turistik xizmatlar xolati.

Samarqand viloyatida, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri xisoblanadi. Chunki, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish axoli farovonligi va ish bilan bandlik masalalarining hal bo'lishini ta'minlovchi muhim omildir. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016-yillarga mo'ljallangan dastur»ga ko'ra, 2016 yilga xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib, uning yalpi ichki maxsulotdagi ulushini 54-56 foizga yetkazish, xizmatlarning yangi, zamonaviy turlarini joriy etish, aholini, birinchi navbatda, qishloq joylarda odamlarni ish bilan band qilish muammolarini hal etishdagi rolini oshirish tadbirlari ko'zda tutilgan.

Respublikamizda, 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlari belgilab qo'yilgan edi. Bulardan kelib chiqib, hamda «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016- yillarga mo'ljallangan

dastur»ga asoslanib mamlakatimizda xususan viloyatlarda xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat bo'ladi:

- xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faolligini yanada kuchaytirish uchun qullay shart-sharoit yaratish, xususan, bu boradagi rasmiyatchilik to'siqlarini bartaraf etish vazifasi qo'yilgan;
- xizmatlar va servis sohasida, avvalo qurilish, transport, moliya bank va axborot-kommunikasiya sohalarida, aholiga tibbiy va kommunal maishiy xizmatlar ko'rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
- xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo'yicha iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar darajasiga chiqish;
- eng muhimi, katta kapital qo'yilmalar talab qilmaydigan bu soha iqtisodiyotning yuksalishiga, aholi bandligi va daromadlarining ortishga sezilarli darajadagi ijobiy ta'sirini oshirib borish;
- xizmatlar hajmini yuqori sura'tlarda o'sishini ta'minlashi ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2016 yilda 54-56 foizga yetkazish;
- qishloq joylarda xizmat va servis sohasini jadal rivojlantirish, xususan, qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar birinchi navbatda, kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, suvdan foydalanish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayorlash va mashina traktor parklari sohasidagi xizmatlar hajmi va turlarini yanada oshirib borish;
- mamlakatimizda an'anaviy xizmatlar turlarini rivojlantirish, ayrim bugungi kun talabiga javob beradigan, ammo unitilib ketilgan xizmat turlarini izlab topish va ularni tiklash;
- xizmatlarning yangi istiqbolli turlarini, xususan, yuridik konsalting, bank, moliya, sugurta, lizing va boshqalarini rivojlantirish;

- mamlakatimiz xizmatlar eksportini ko'paytirish uchun ushbu soha korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga erishish;
- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab- quvvatlash.

Viloyatda ham xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun ushbu tadbirlar asos bo'lib qoladi. Chunki, bugungi ehtiyoj va talabdan kelib chiqib, belgilangan tadbirlar, ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Viloyatimizda turistik xizmat ko'rsatish sohasi hozirgi kunda eng istiqbolli xizmat turlariga kiradi. Uning barcha xizmatlardagi xissasi ham kelajakda oshib boraveradi. Chunki bu soha unga ehtiyoj oshib borish tendensiyasiga ega. So'nggi 3 yillik ma'lumotlarga qaraydigan bo'sak (2.2.1-jadval) 2014 yilda 2012 yilga nisbatan turistik xizmatlarning hajmi 1,8 marta oshganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

2.2.1-jadval

Samarqand viloyatida Turistik xizmatlarning holati.

№	Turistik xizmatlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil	
		Hajmi mrd. so'm	o'sish sur'ati %	Hajmi m r d. so'm	o'sish sur'ati %	Hajmi m rd. so'm	o'sish sur'ati %
1	Jami xizmatlar	2983,6	117,6	4076,9	124,1	5324,0	121,7
2	Turistik xizmatlar	27,9	118,1	38,5	125,3	45,5	124,1

Manba: Samarqand viloyatining tegishli yillardagi passporti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekistonda va xususan Samarqandda xalqaro turizmni rivojlantirishda «Buyuk Ipak Yo'li»ning ahamiyati cheksizligini hisobga olgan holda hukumat tomonidan qabul qilingan «Buyuk Ipak Yo'lining tiklanishida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida»gi farmoni kutilgan natijalarni

bermoqda. Janubiy Sharqiy Osiyodan O'rta yer dengizi mamlakatlarigacha cho'zilgan «Buyuk Ipak Yo'li» deb nom olgan savdo-sotiq yo'li bir necha asrlar davomida zaminning Farb va Sharqida istiqomat qilgan xalqlarni bog'lab turgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston turizm ko'lami va tarixiy yodgorliklari miqdori bo'yicha dunyodagi yetakchi 10 talikka kiradi. Mamlakatimizda 4 mingdan ortiq tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, 900 dan ortiqroq sayyohlik korxonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Yangi sayyohlik marshrutlari ishlab chiqayotganligi, shuningdek zamonaviy vokzal va aeroportlar qurilayotganligi, transport aloqalari va restoranlar xizmati takomillashtirilib, mehmonxona majmualari qad ko'tarayotganligi sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi hisoblanadi. Bu tadbirlar albatta o'z natijasini bermay qolmaydi va turistlarning viloyatimizga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga turtki bo'ladi. Quyidagi 2.2.2-jadvalga nazar tashlaydigan bo'lsak 2014 yilda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan tur operatorlar tomonidan jami 12303192 ming so'mlik turlar realizatsiya qilingan bo'lib shundan 11807499 ming so'mi aholiga sotilgan putyovkalar hissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p 4216 ta yo'llanmalar O'zbekiston fuqarolariga sotilgan bo'lib chet el fuqarolariga jami 2419 ta (MDH mamlakatlari fuqarolarini qo'shgan holda) 10056383 ming so'mlik yo'llanmalar sotilgan. Bularning barchasi ichki turizm rivojlanayotganligi va sayyohlik xizmatlari ko'lami ko'rsatkichlarini

2.2.2-jadval.

2014 yilning yanvar-dekabr oylarida tur operatorlar tomonidan sotilgan turlar soni va hajmi

	Birliklar soni	Hajmi ming so'm
Samarqand viloyati		
Jami sotilgan turlar (yo'llanmalar)	6708	12303192
Shundan aholiga sotilgan	6684	11807499
<i>jumladan</i>		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	4216	585707

Chet elga O'zbekiston fuqarolariga	197	1100333
Shundan MDH mamlakatlari bo'yicha	95	96033
O'zbekiston hududi bo'yicha MDH davlatlari fuqarolariga	49	165410
O'zbekiston hududi bo'yicha boshqa chet el fuqarolariga (MDH davlatlari fuqarolaridan tashqari)	2222	9956050

Manba: SamarqandviloyatDavlatstatistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida

oshayotganidan da'lolatdir. Masalan, mamlakatda joriy yilning birinchi yarmida ko'rsatilgan sayyohlik xizmati o'tgan yilga nisbatan 113,4% ni tashkil etgan bo'lsa, sayyohlik xizmatlarining eksporti bo'yicha dalillar 115,3% ga oshdi

Samarqandni bir bor ko'rish, inson zakovati bilan yaratilgan mo'jizalarni tomosha qilishni istovchilar soni yildan yilga ortmoqda. Sayyohlar sonining yillik o'sish soni esa 10 - 15 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu 2.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tashrif buyurgan turistlar soni Samarqand

(2.2.3-jadval)

Samarqand viloyatida 2014 yil 1-yanvar holatiga tashrif buyuruvchilarga mehmonxona va turizm faoliyati bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar.

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Mehmonxonalar soni	dona	69	77	94
2	Ulardagi xonalar	dona	1976	2262	2404
3	Ulardagi o'rinlar	dona	3885	4331	4778
4	Turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar	dona	45	50	65
5	Tashrif buyuruvchilar soni	ming kishi	103,6	130,0	167,4
6	Turizm xizmati (mehmonxona xizmati bilan) jami	mlrd. so'm	27,9	38,5	45,5
7	<i>O'sish sur'ati</i>	foiz	118,1	125,3	124,1

Manba: SamarqandviloyatDavlatstatistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida

viloyati bo'yicha 2012 yilda 103,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 167,4 ming kishiga, ya'ni 37,4 ming kishiga ko'paygan. Turistlarga

ko'rsatilgan xizmatlar hajmi Samarqand viloyati bo'yicha 2012 yildagi 27,9 mlrd. so'mdan, 2014 yilda 45,5 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni 17,6 mlrd.ga o'sgan(2.2.3-jadval) va jami 27438 ta turistga xizmat ko'rsatilgan (3.1.1-jadval).

Turistlariga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining bunchalik yuqori sur'atlar bilan ko'payishiga ko'pgina omillar ta'sir qilgan. Bularning asosiysi quyidagilardir:

- turistlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarining yildan-yilga ko'payib borishi va xizmatlar sifatining yaxshilanib borayotganligi;
- turistlarning ko'proq muddat bo'lishlari. Bu turistlarga ko'rsatilgan xizmat hajmi (kishi, kunlar) ko'rsatkichida ham o'z ifodasini topgan.
- turistlarga ko'rsatilayotgan xizmat narxlarining (tariflarining) ma'lum darajada ko'tarilgani ham sabab bo'lgan.

Umuman olganda, viloyatimizda turizmni rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlar mavjud. Lekin mavjud imkoniyatlardan to'liqligicha foydalanilmayapti. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki ayni paytda Samarqand shahrida 94 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. 2013 yili Samarqand shahriga 130 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan. Garchi hozirgi vaqtda Turizmning ko'plab yangi yo'nalishlari bo'lsada, Samarqandga sayyohlar faqat tarixiy obidalarni tomosha qilish uchun kelmoqda xolos. Aytib o'tish o'rinliki, shaharda ishbilarmonlik, ekologik va turizmning boshqa xizmatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Taxminiy hisoblarga ko'ra, agar turizmning boshqa turlari tashkil etilsa, Samarqandga bir yilda 530 mingdan ziyod sayyoh tashrif buyurishi mumkin.

Samarqand viloyatiga turistlarning tashrif buyurish davomiyligi 2014 yil ma'lumotlar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatdiki (2.2.4-jadval) 1-3 kungacha bo'lgan muddatda eng ko'p tunashlar soni chet el fuqarolariga (54198 kishi) to'g'ri kelayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich tunashlar soni ortishi bilan qisqarib kelmoqda va 8 kundan 28 kungacha bo'lgan muddatda 263 kishini tashkil qilyapti ya'ni 206 marta kam. Jadval ma'lumotlari bo'yicha tunash davomiyligini fozilarda ko'radigan bo'lsak, mehmonxonalarga joylashgan mijozlarning asosiy qismi 90,82 %i, 1-3 kunga, 7,04 %i 4-7 kunga mehmonxona xizmatlaridan foydalanar ekan. Bu holat mehmonxona


1-3 oqshom	H C p S) Q) e b S) Q) i P
4-7 oqshom	
8-28 oqshom	
29-91 oqshom	
92-182 oqshom	
183- 365 oqshom	
Jami, kishi	

[illegible]

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki Samarqandda ichki turizm rivojlanayapti. Buni yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin Bir yilda 400 ming ichki sayyohga xizmat ko'rsatilmoqda.

2.2.2-rasm.

2014 yilda Samarqand viloyati bo'yicha mehmonxonalarda joylashgan turistlarning tashrif buyurish davomiyligiga ko'ra tarkibi



Lekin ularning harakat yo'nalishi, xizmat ko'rsatish darajasi, mehmonxonalarda dam olishlariga turistik firmalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Shuningdek, har tomonlama malakali gid-tarjimonlar yetishmaydi. Bu kabi masalalar ijobiy hal etilsa, Samarqandda turizm eng istiqbolli, serdaromad sohaga aylanadi, deb o'ylaymiz.

Respublikamiz iqtisodiyotida bo'lgani kabi Samarqand viloyatida ham xizmatlar sohasini ustuvor darajada rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Buning natijasi o'laroq, viloyatimiz iqtisodiyoti xizmatlar ko'rsatish sifatlari yaxshilanib bu sohaning o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Quyidagi jadvalda ishlab chiqarish turlari bo'yicha xizmatlar xolati keltirilgan (2.2.5-jadval). Jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki, viloyatda umumiy xizmatlar hajmi o'sib borgan lekin. 2014 yilda jami xizmatlar hajmi 5324,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2012 yilga nisbatan 2340,4 mlrd. so'mga oshgan. 2014 yilda jami xizmatlar

xajmida savdo va umumiy ovqatlanishning ulushi eng yuqori bo'lib 30,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlarga turistik xizmatlar (0,9 foiz) ega bo'lib tahlil qilinayotgan yillar davomida umuman o'zgarmagan.

2.2.5-jadval.

Samarqand viloyatida 2012-2014 yillar mobaynida xizmat ko'rsatish soxasidagi tarkibiy o'zgarishlar.


№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	Jami xizmatlar	mlrd.so'm	2983,6	4076,9	5324,0
1	Savdo va umumiy ovqatlanish	%	28,6	28,2	30,0
2	Transport xizmatlari	%	17,6	17,3	16,6
3	Aloqa va axborotlashtirish	%	6,9	6,1	5,8
4	Moliya va bank xizmatlari	%	7,1	6,7	6,1
5	Turistik xizmatlar	%	0,9	0,9	0,9
6	Komunal va maishiy xizmatlar	%	7,3	6,5	7,0
7	Boshqa xizmatlar	%	31,6	34,3	33,6

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Bunga asosiy sabab turistik xizmatlarning yetarlicha rivojlanmaganligi, turistik xizmatlar turlarining kamligi va turistlar tashrif buyirishining mavsumiyligidir.

Shuningdek, 2.2.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari taxlil qilinayotgan yillarda muntazam oshib borgan. Ammo qolgan xizmat turlarining 2013 yil ko'rsatkichlari bilan solishtirganda jami xizmatlardagi ulushining kamayganligini kuzatishimiz mumkin(2.2.3-rasm).

Samarqand viloyatida 2012-2014 yillar mobaynida xizmat ko'rsatish soxasidagi tarkibiy o'zgarishlar.



Manba: 2.5-jadval asosida muallif tomonidan tuzildi

Xizmat ko'rsatish xajmida eng salmoqli ulush, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari (30,0 foiz) transport xizmatlari (16,6 foiz) ga to'g'ri kelmoqda.

2.2.6-jadval.

Xizmatlar ko'rsatish va servis soxasida 2014 yilda olingan daromadlar to'g'risida ma'lumot

	2013 yil yanvar- dekabr	2014 yil yanvar- dekabr	2013 yil yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida
	Mlrd, so'm		%
Xizmatlar-jami	4076,9	5324,0	121,7
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,7	309,8	131
Kompyuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar	1,4	1,9	125,9
Moliyaviy xizmatlar	273,1	324,1	133,2
Transport xizmatlari	703,6	885,1	121,6
Qurilish xizmatlari	148,9	235,6	134,0
Texnologik qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	10,9	12,7	117,8
Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6	5,8	110,9

	2013 yil yanvar- dekabr	2014 yil yanvar- dekabr	2013 yil yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida
	Mlrd, so'm		%
Sayyohlik xizmatlari (mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda)	38,5	45,5	124,1
Savdo va umumovqatlanish xizmatlari	1151,6	1599,1	120,9
Maishiy xizmatlar	264,3	371,7	128,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	178,3	182,1	113,2
Sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar	51,6	62,8	120,6
Qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar	60,6	64,1	113,2
Boshqa bozor xizmatlari	940,8	1223,7	114,7

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Tabiiyki turistik xizmat ko'rsatish sohasidan olingan daromad ham aytarli darajada emas. Agar jami xizmatlardan tushgan daromad 2013 - yilda 4076,9 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 - yilga kelib 5324 milliard so'mni tashkil qildi ammo, turizm xizmatlarining ulushi kam salmoqqa ega bo'lib mos ravishda 38,5 va 45,5 milliard so'mni tashkil qildi (2.2.6-jadval). Bu xolat turizm saloxiyati bo'yicha katta imkoniyatga ega bo'lgan Samarqand viloyati uchun xali yetarli emas, albatta.

Ushbu xizmat turidan olinadigan daromadlarni oshirish uchun turistik obyektlar jozibadorligini mehmonxona xizmatlarini kengaytirish ishlarini jonlantirish lozim bo'ladi.

Chet el turizmini rivojlantirishda hozirgi paytda shaharda mehmonxonalarning turi ham kamlik qiladi. Masalan, otel-lyuks, o'rta klass bo'g'indagi mehmonxonalar, pansionatlar bizda bor, lekin otel-kurortlar, motellar, rotellar, botellar, flotellar, flaytellar yo'q hisobi.

2.3 Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasining mintaq iqtisodiyotiga ta'siri holati.

Mamlakatimizda shunday vaziyat yetildiki, endi xizmat ko'rsatish sohasini yangi bosqichga ko'tarish, uning iqtisodiyotdagi salmog'ini yanada oshirish, aholining bandlik darajasini ko'tarishdagi rolini kuchaytirish lozim bo'lmoqda. Buni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012 yil 10 mayda "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-sonli qarorni qabul qildi. Qabul qilingan ushbu qarorning natijasi o'laroq 2014-yilda xizmat ko'rsatish sohasining YalM dagi ulushi 54 foizni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va roli sezilarli darajada oshmoqda.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini bozor munosabatlarining shakllanishi va chuqurlashib borishi bilan yanada rivojlantirish, unda raqobat muhitini vujudga keltirish, hozirgi murakkab sharoitda kun tartibiga turli yangi va o'ta muhim masalalarni qo'ymoqda. Bular safida turistik xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalasi o'ta muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda turistik-ekskursiya, aloqa, axborot-kommunikatsiya, bank, sug'urta, lizing va boshqa zamonaviy yuqori texnologik va bozor munosabatlariga mos xizmat turlari ildam sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasining yetakchi turlaridan biri bu turistik xizmatlar bo'lib, u mamlakatimizga jumladan shahrimizga tashrif buyirayotgan turistlar oqimining ko'payishida asosiy omil bo'lib xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida turistik xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlarini 2.3.1 -jadvalda ko'rib chiqamiz.

2.3.1-jadval.

Hududlar bo'yicha turistik firma va korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar (turistlar) soni

	2011-y. 1-yanvar	holatiga	2012-y. 1-yanvar holatiga	
	xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni. ming kishi	Ulushi %	xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni. ming kishi	Ulushi %
O'zbekiston Respublikasi	363,3	100	411,7	100
viloyatlar:				
Toshkent shahri	147,9	40,7	155,1	37,7
Xorazm viloyati	104,2	28,7	121,4	29,5
Buxoro viloyati	46,7	12,9	58,3	14,2
Qashqadaryo viloyati	19,3	5,3	10,9	2,6
Samarqand viloyati	17,6	4,8	25,5	6,2
Qolgan hududlar	27,6	7,6	40,4	9,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasima'lumotlari asosida

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

- O'zbekistonda 2012 yil 1-yanvar holatiga 411,7 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan bo'lib bu ko'rsatkich 2011 yilning shu davriga nisbatan 48,4 ming kishiga oshgan;

- Tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Jumladan, 2011 yilga nisbatan 2012 yilda 7,2 ming kishiga oshgan;

- Turizm soxasi rivojlangan Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlariga tashrif buyuruvchilar soni o'tgan yilga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Faqatgina Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyuruvchilar soni 2012-yilda 2011 yilning shu davriga nisbatan 8,4 ming kishiga kamaygan;

Bilamizki Samarqand, Buxoro hamda Xorazm viloyatlari Respublikamizning asosiy turistik markazlarini tashkil etishadi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tahlil qilinayotgan yillar davomida Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatilgan turistlar soni va ulushi qolgan turistik markazlardagiga nisbatan kam. Bu esa viloyatimizga tashrif buyurayotgan turistlarning barchasi ham xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan qamrab olinmayotganligi va ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar turli tuman emasligi va ko'rsatilayotgan turistik xizmatlarning qoniqarli darajada emasligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish turlari qay darajad ekanligini quyidagi 2.3.2-jadval orqali ko'rib chiqamiz.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Respublika miqyosida 2013 - yil 1 - yanvar holatiga aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar bo'yicha aholiga jami 65721,3 million so'mlik turistik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, 1099480,2 million so'm miqdorida maishiy xizmat ko'rsatilgan. Respublika miqyosida qolgan xizmat turlari bilan solishtirganda bu ancha past ko'rsatkich albatta, lekin shunday bo'lishiga qaramasdan viloyatlar kesimida oladigan bo'lsak Samarqand viloyatida ko'rsatilgan turistik xizmatlar 15737,5 million so'mni tashkil etib, Toshkent shahri (42396 million so'm)dan keyingi o'rinda turibdi.

2.3.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmat ko'rsatishning asosiy turlari hajmi (2013-yil 1-yanvar holatiga).


Million so'm

	Xizmatlar					
	Maishiy	Transport	Aloqa	Uy-joy kom- munal xo'jaligi	Turis- tik- ekskur- siya	Jismo- niy tarbiya va sport
O'zbekiston Respublikasi	1099480,2	3475669,4	2252764,4	2424055	65721,3	54930,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	27712,1	47866,6	118058	115474,9	70,1	165,7
Viloyatlar						
Andijon	145505,7	282799,3	191107,6	167006,3	103,4	722,3
Buxoro	55005,7	114030,3	118695,9	145788,3	2680	2265,7
Jizzax	24448,2	30297,0	72397,9	55675,8	26,7	983,8
Qashqadaryo	68686,7	82887,4	154841,8	121349,3	173,0	2366,6
Navoiy	37324,7	69853,4	80154,1	95418,4	101,2	1566,9

Namangan	116435,2	161614,7	90079,3	160311,9	0,0	224,1
Samarqand	115184,1	306834,3	199636,9	215315,7	15484,3	15737,5
Surxondaryo	56152,2	57392,4	115444,2	90355,3	104,3	783,5
Sirdaryo	12453	11100,7	59202,8	43852,8	21,3	840,2
Toshkent	91324,2	218724,6	31968,5	262636,7	237,9	7163,6
Farg'ona	150765,4	186479,8	223061,3	233952,8	211,8	9563,3
Xorazm	50447,7	84951,1	109027,2	105941,9	4111,3	17,7
Toshkent sh.	147100,6	821917,8	689088,9	611974,9	42396	12529,6

Respublikaning turistik markazlari bo'lgan Buxoro (2265,7 million) hamda Xorazm(4111,3 million so'm) viloyatlarida ko'rsatil xizmatlar hajmiga nisbatan Samarqand viloyati ko'rsarkichi mos ravishda 7 va 4 marta ko'p. Buni quyidagi 2.3.1-rasmda yanada yaqqol kuzatishimiz mumkin.

2.3.1-rasm



Manba:2.3.2-jadval asosida muallif ishlanmasi

Ko'rinib turibdiki Samarqand viloyati mamlakat turizm sohasida va salohiyatida o'z o'rniga ega.

3-bob. Turistik xizmatlar sifati va hajmini oshirish orqali turistik xizmatlarni rivojlantirish yo'llari.


3.1 Samarqand viloyatidada turistik xizmatlar sifati va xizmatlar hajmini oshirish imkoniyatlari

Turistik xizmatlar asosan mehmonlarni (turistlarni) aylantirishga va ularni turar-joy bilan ta'minlashga qaratilgan turli xizmatlar ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmog'i hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlardan foydalanishning yo'llaridan biri ularni mamlakatga turistlar tarzida tashrifini ta'minlab, turli xizmatlar ko'rsatish evaziga mablag'larini iqtisodiyotimizga jalb qilishdan iboratdir. Mablag'larning tushumi nafaqat xizmat turlariga, balki servisning sifatiga ham bog'liqdir. Turistik xizmatlar turi viloyatimizda jadal o'sish sur'atiga ega. Samarqand viloyati bo'yicha turistik xizmatlar hajmi o'tgan davrda 1,6 marta oshgan (3.1.1-rasm).

3.1.1-rasm.

Samarqand viloyatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'zgarishi, milliard so'm.

Samarqand viloyatida Turistik xizmatlarning holati



Bu holat Samarqand viloyatida turizm industriyasining, jumladan ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar hajmining oshib borayotganligini ko'rsatadi. Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2012 yilda turistik xizmatlar 27,9 mlrd. so'mni, 2014 yilda esa 45,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bu holat ko'rsatadiki, Samarqand viloyatining turistik salohiyati bundan ham ko'p turistlarga xizmat ko'rsatish va qabul qilish imkoniyatiga egadir.

Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish Samarqand viloyatiga qancha turistlar tashrif buyurganligi, ularning tarkibidagi o'zgarishlar qanday bo'lganligi ma'lumot beradi. viloyatimizga tashrif buyuruvchi turistlarni guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya qilamiz. Bu guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mahalliy turistlar ya'ni, O'zbekiston Respublikasidan viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar.
2. Yaqin xorijiy mamlakatlardan tashrif buyuradigan turistlar, ya'ni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan tashrif buyuruvchilar.
3. Uzoq xorij mamlakatlardan tashrif buyuradigan turistlar. Bularga qolgan barcha davlatlardan tashrif buyuruvchilar kiradi.

Bu uch guruhga kiruvchi mamlakatlardan 2014 yilda Samarqandda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchi turistlarning umumiy soni jadvalda keltirilgan (3.1.1-jadval).

(3.1.1-jadval)

**2014 yil yanvar-dekabr holatiga xizmat ko'rsatilgan tashrif
buyuruvchilar (turistlar)soni**

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori	O'lchov birligi
1	Turistik faoliyat bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar va firmalar soni	79	dona
2	Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni	27438	kishi
	<i>ulardan</i>		
2.1.1	Xorijiy tashrif buyuruvchilar	18403	kishi
2.1.2	MDH mamlakatlaridan tashrif buyurganlar	1571	kishi
2.1.3	O'zbekiston fuqarolari	7464	kishi

Manba: Samarqand viloyat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2014 yilda mahalliy turistlar, ya'ni O'zbekistonlik turistlarning 7464 tasiga xizmat ko'rsatilgan. Bu barcha xizmat ko'rsatilgan turistlarning 27,2 foizini tashkil qiladi. Xizmat ko'rsatilganlarning 1571 tasi MDH mamlakatlaridan va buning ulushi 5,7 foizni tashkil qiladi. Xizmat ko'rsatilganlarning 18403 tasi xorij mamlakatlaridan tashrif buyurgan va 67,1 foizni tashkil qilmoqda.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, Bizning viloyatimizga xorijiy turistlar ko'p tashrif buyurar ekan, eng avvalo, ushbu turistlarni xalqaro talablarga javob beradigan mehmonxonalar bilan ta'minlashimiz zarur. Bu borada Samarqandda keyingi yillarda bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Turistlar bilan suhbatlashganimizda va anketalar orqali sosiologik so'rov o'tkazgan paytlarimizda ularning fikricha, mehmonxonalarimizning qurilishi, ulardagi qulayliklar, xalqaro andozalar darajasiga yaqinlashgan. Ammo ko'rsatiladigan xizmatlarning turlari va sifatidan ko'pchilik mehmonlar qanoatlanmaganliklarini qayd etmoqda. Hatto, respublikamizdan tashrif buyurgan mehmonlar ham ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasidan qoniqmaganliklarini, ayrimlarining narxi sifat darajasiga nisbatan baland ekanligini qayd etganlar. Ko'rinib turibdiki, mehmonxonalarimizda xizmat ko'rsatishning sifatini oshirish masalasi bugungi kunda kechiktirib bo'lmaydigan, zudlik bilan tezkor tarzda hal qilinishi lozim bo'lgan

masalalardan biridir. Bunga erishishning bir yo'li, mehmonxonalarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish, ularni turli mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishdan iboratdir. Shahrimizda xizmat ko'rsatishning barcha talablariga javob beradigan namunaviy mehmonxona kompleksini tashkil qilish va uni barcha mehmonxonalar uchun andoza tarzida foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ro'y berganidek, Samarqand turistik bozorida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- monopol xo'jalik yuritishdan ko'p ukladli xo'jalik yuritish tizimiga o'tildi, ya'ni, mamlakatimizning turistik bozorida xususiy turistik korxonalar paydo bo'ldi;
- turistik bozor yangi tartiblar asosida faoliyat yurita boshladi, ya'ni, turistik korxonalar uchun narx belgilash, iste'molchi va ta'minotchilarni tanlash erkinligi yaratildi;
- turistik bozorda turistik talabning yangi turlari paydo bo'ldi, ya'ni, shop-turlar, sarguzasht-turlar, til o'rganish turlari kabilar vujudga keldi;
- turizmning asosiy vositalariga bo'lgan talab yanada kuchaydi, ularning servis xizmati sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishini talab qilinmoqda, ya'ni avtomobillarning dizayni va xavfsizligini ta'minlashga qaratilganligi kabilar;
- Samarqand turistik bozoriga yirik mehmonxonalar kirib keldi va ular bilan amalga oshiriladigan qo'shma faoliyat rivojlanishida xorijiy investorlarning ishtiroki oshdi;
- turizmdan mahalliy aholining daromad olish imkoniyatlari yetarli darajada o'sish bosqichiga kirdi.

Umuman olganda, Samarqand viloyatida hozirgi kunda turistik resurslardan to'liq va samarali foydalanilayati, deb bo'lmaydi. Shu tufayli turistlarga mo'ljallangan mehmonxonalarning bandlik darajasi pastligicha qolib ketmoqda.

Hozirgi paytda turizmni rivojlantirish va mehmonxonalar samaradorligini oshirish hamda xizmat sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Samarqandda ekoturistik salohiyat ham boshqa turistik obyektlar singari yetarli bo'lishiga qaramasdan xorijiy turistlarning ekoturizm yo'nalishlari bo'yicha marshrutlar ishlab chiqilmagan. Turistik firmalar bu yo'nalish bo'yicha yangi turistik marshrutlar ishlab chiqib, Samarqandga turistlar tashrifini ko'paytirish choralari ko'rishlari lozim. Bu ayniqsa, bugungi kunda, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etib turgan pallada muhimdir. Chunki mazkur sohani rivojlantirish ko'p mablag' sarflamasdan qo'shimcha valyuta tushumini ta'minlaydigan muhim yo'nalishlardan biridir. Zero, turistlarni ko'paytirish uchun mehmonxonalar bilan bog'liq turistik infratuzilmalar tegishli tarzda yaratilgan.

Xususan, xorijiy va mahalliy turistlar uchun mo'ljallangan dam olish joylaridan samarali foydalanish maqsadida Urgut tumanidagi «Ming archa» oromgohi, Samarqand tumanidagi Ohalik dam olish zonolari, Jomboy tumanidagi «Zarafshon» qo'riqxonasi rahbarlari bilan turfirmalar o'rtasida hamkorlik kelishuvlari tuzildi. O'ylaymizki, turistik bozorda o'tkazilayotgan islohotlarning mantiqiy yakuniga yetkazilishi, turizmni boshqarish tizimining doimiy ravishda takomillashtirib borishi, hukumatimiz tomonidan turizmni rivojlantirish maqsadida markazlashgan holda ajratiladigan mablag'lar hajmining ortib borishi Samarqandning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga, mamlakat byudjetiga tushadigan mablag'larni oshirishga, xususiy korxonalar va mahalliy aholining moddiy-ma'naviy farovonligini ta'minlashga erishish imkonini beradi.

Samarqand viloyatidagi turistik marshrutlarning ko'pchiligi YuNESKO tomonidan qo'riqlanadigan 20 dan ortiq me'moriy yodgorliklarni, shuningdek tarixiy shaxslar va allomalarning 10 dan ortiq qabrlarini ziyorat qilishni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, Samarqand viloyati respublikamizning ko'zga ko'ringan turistik maskanlaridan biri hisoblanadi. Viloyatimizda shu kungacha bir qancha

ijobiy ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda, lekin biz bu bilan cheklanib qolmasligimiz shart, aksincha bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishimiz lozim.

3.2. Samarqand viloyatida turistik xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasida so'zlagan ma'ruzasida quyidagi muhim ustuvor vazifa belgilab berildi: "Tarkibiy yangilanishdagi alohida e'tiborni talab etadigan muhim masala - bu xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlashdan iborat". Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, hozirgi kunga kelib xizmat ko'rsatish tarmog'ining bir qismi bo'lgan turizm sohasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Turizm nafaqat bir mamlakat, balki butun bir mintaqa iqtisodiyoti rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan ham turizmni rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz I.A. Karimov 1995 yil 2 iyunda «O'zbekiston Respublikasining Buyuk ipak yo'lining shakllanishida ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida»gi PF-№ 1162, 2012 yilning 3 iyunida Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratish choralari to'g'risida»gi 210-sonli qarori, Prezidentimizning 1999 yil 15

aprelda «O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi PF 2286-sonli farmoni va boshqa me'yoriy hujjatlar (2-ilova) davlatimiz hamda hukumatimiz tomonidan turizmga katta e'tibor berilayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham turizm sohasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoq- dalar. Bunday xizmatlarni esa turizm sohasi ko'rsatadi.

XXI asrga kelib turizm ahamiyati nuqtai nazaridan jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon sayyohlik sanoatida turizmdan tushayotgan daromad avtomobil ishlab chiqarish, neft va gaz sanoatidan keyin uchinchi o'rinda turadi. Dunyoda turizm sohasida 195 million kishi ish bilan band aholining 8 foizi mehnat qilmoqda. BMT Jahon turizm tashkilotining yaqinda e'lon qilingan statistik ma'lumotlariga qaraganda, 2012 yilda 1 milliarddan ortiq sayyoh xalqaro safarga chiqqan va ushbu holat xalqaro turizmning yillik pul aylanmasi 4 trillion 500 milliard yevroga yetishiga sabab bo'lgan

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, turizm jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini, jahon servis eksportining esa 30 foizini va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining 45 foizini tashkil etadi. Turistik daromad juda ko'pchilik mamlakatlarning asosiy daromadi hisoblanadi. Masalan, AQSh dunyo miqyosida xalqaro turizmdan olinadigan daromadning 11,3 foizini, Ispaniya - 5,1 foizini, Fransiya - 4,7 foizini, Italiya 4,1 foizini, Xitoy - 2,8 foizini oladi. Bir yilda Fransiya xalqaro turizm sifatida 75,2, Ispaniyaga 50,1, AQShga 45,5, Italiyaga 39,1, Xitoyga 33,2 mln. kishi tashrif buyuradi.

Lekin, O'zbekistonda turizmning rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, mamlakatimizning xalqaro turizm bozoridagi ulushi juda kam. Shu o'rinda aytish kerakki, mamlakatimizda ko'rsatilayotgan

jami xizmat turlari ichida turizm xizmati ulushining kamligini ko'rishimiz mumkin. Buni quyidagi jadval maTumotlari ko'rsatib turibdi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami xizmatlar ichida eng kam ulushni turistik xizmatlar egallamoqda. Bu, albatta, yaxshi xol emas. Respublikamizda turizmni rivojlantirish borasida imkoniyatlar mavjud, lekin undan samarali foydalana olmayapmiz.

3.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida ko'rsatiladigan xizmatlar turlari va unda turizm xizmatlarining tutgan o'rni (foiz xisobida)


Xizmat turlari	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Transport xizmatlari	26,6	25,5	25,5
Aloqa va informatizatsiya xizmatlari	17,7	17,3	16,5
Sanatoriya-kurort va sogTomlashtirish	0,5	0,5	0,6
Turizm ekskursiya xizmatlari	0,5	0,5	0,5
So'liqni saqlash	2,7	2,5	2,9
Kommunal xizmatlar	16,6	16,7	17,8
Maishiy xizmatlar	8,0	8,6	8,1
Xalq ta'lim soxasi	7,7	7,6	8,4
Boshqa xizmatlar, bolalar sporti va sogTomlashtirish markazlari xizmatlari	19,7	20,8	19,7
Jami xizmatlar	100.0	100.0	100.0

Mamlakatimizga kelayotgan turistlarga ko'rsatilayotgan servis xizmatining ancha past darajadaligi, turistlar oqimining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim mutaxassislarning tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonga kelgan turistlarning 60 foizi bu yerga faqat servis xizmatining pastligi evaziga qaytib kelmasligini bildirgan. Bu oddiy misoldan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimiz turistik faoliyatidan oladigan daromadlari kamayishining bir sababi sifatida xizmatlar sifatining talab darajasida emasligini ko'rsatishimiz mumkin. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo'yicha biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz"

Turizmning rivojlanishi hozirgi davrning eng katta ijtimoiy muammosi - ishsizlikning kamayishiga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyotida olib borilayotgan muhim ijtimoiy siyosatlardan biri, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishdir. XX asrning oxirlarigacha, aholi turmush darajasini oshirish va aholi bandligini ta'minlashda, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlari muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Biroq, aholi ehtiyojlarining shakllanishi, halqaro iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishi, xizmat ko'rsatish sohasini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi, aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligini ko'rsatadi. Shu o'rinda xizmat ko'rsatish sohasining YalMdagi yillar bo'yicha ulushini ko'rib chiqsak.(3.2.1-rasm)

3.2.1-rasm.

Xizmat ko'rsatish sohasining YalMdagi ulushi,(%)



3.2.1-diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish sohasining YalMdagi salmog'i yil sayin o'sib borayotganligini ijobiy holat sifatida baholashimiz mumkin. 2004 yilda uning ulushi 37 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib uning hissassi 52 foizga yetganligini kuzatamiz. Xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016 yillarga mo'ljallangan dastur loyihasida mamlakatimiz YalM tarkibida bu sohaning ulushini 54-56 foizga yetkazilishi kutilmoqda.

Shu sababli ham xizmat ko'rsatish sohasining asosiy tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi turmush darajasini oshirish va bandlikni ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining turizm tarmoqlari muhim tarmoqlardan biri sifatida qaraladi. Turizm hozir ham kelajakda ham mamlakat xazinasi uchun zarur valyuta tushumini ko'paytiradi, aholini ish bilan ta'minlaydi va shu asosda uning turmush darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Chunki, O'zbekistondagi iqtisodiy, siyosiy barqarorlik bu sohani jadal sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Hatto, jahon hamjamiyati tomonidan umume'tirof etilayotgan masalalardan biri ham dunyo miqyosida iqtisodiyotning barcha sohalarini, xususan xizmat ko'rsatish sohasining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanayotgan turizmni barqaror rivojlanib borayotganligini ta'kidlamogda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, hududga kelgan har 30 ta turist sababli 1 ta turizm sohasida hamda 2 ta turizm bilan bog'liq sohalarda yangi ish o'rinlari yaratilar ekan. Shuningdek, turistlar sonining ortishi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ko'payishiga va mahalliy sanoatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston juda katta turistik salohiyatga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizmning markazlaridan biri hisoblanadi. Vatanimizda horijiy mehmonlarni jalb qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Ko'p yillik tarixga ega me'morchilik yodgorliklari va san'at namunalari, o'ziga xos tabiat va ob-havo, hayvonot va o'simliklar olamiga boy bo'lgan cho'l va qo'riqxonalar, juda ham mazali va foydali mevalar, poliz ekinlari, shuningdek, faqat O'zbekistonda uchraydigan san'at turlari hamda o'ziga xos madaniyati shular jumlasidandir. Hozirga kelib mamlakatimiz hududida turli davr va madaniyatlarga oid 7000 dan ziyod me'morchilik yodgorliklari va san'at namunalari bo'lib, ulardan ko'pchiligi YuNESKOning butun jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Turizm sohasining rivojlanishi mamlakatda milliy-ma'naviy meroslarimizni, urf-odatlarimizning yangi qirralarini namoyish etish imkoniyatini yaratadi. Undan manfaatdor bo'ladigan tashabbuskor guruhlar

vujudga keladi. Turizmning milliy-ma'naviy merosni o'rganadigan va targ'ibot qiladigan yangi xizmat turlari shakllanib, aholining ushbu tarmoqda band bo'lish imkoniyati vujudga keladi. Turizm sohasida yangi qirralarning shakllanib borishi aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishda keng imkoniyatli tarmoqlaridan biri sifatida qoladi.

Shuni ta'kidlash joizki Respublikamizda turistik xizmatlarning rivojlanishida Samarqand viloyatining ahamiyati juda ham katta 3.2.2-jadval.

3.2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sayyohlik xizmatlari ko'rsatishning hajmi

Mintaqalar nomi	Sayyohlik xizmatlari, mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda			
	2012 yil		2013 yil	
	Jami mlrd. So'm	O'sish sur'ati foizda	Jami mlrd. So'm	O'sish sur'ati foizda
O'zbekiston Respublikasi	236,9	118,3	313,0	117,2
Qoraqalqog'iston Respublikasi	1,7	132,7	2,4	108,1
<i>Viloyatlar</i>				
Andijon viloyati	4,5	102,5	5,5	101,3
Buxoro viloyati	10,5	103,1	14,4	129,6
Jizzax viloyati	2,2	141,9	3,2	122,9
Qashqadaryo viloyati	3,5	131,0	5,1	145,4
Navoiy viloyati	5,8	108,9	7,2	106,5
Namangan viloyati	2,4	117,1	7,0	133,7
Samarqand viloyati	29,4	124,3	36,6	112,3
Surxondaryo viloyati	2,8	114,5	4,5	140,2
Sirdaryo viloyati	0,8	92,9	1,1	138,1
Toshkent viloyati	23,6	142,8	43,5	129,4
Farg'ona viloyati	4,6	132,3	9,9	107,7
Xorazm viloyati	8,2	143,6	10,1	100,4
Toshkent shahri	137,0	114,1	162,5	115,4

Manba: O'zbekiston hududlarining yillik statistik tϫplami

2012 yilda jami sayyohlik xizmatlarining hajmi 236,9 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 313 milliard so'mdan iborat bo'ldi va o'tgan yilga nisbatan 17,2 foizga o'sdi. Ko'rilayotgan yillarning barchasida Samarqand viloyatining salmoqli hissasini ko'rishimiz mumkin. 2012 , 2013 yillarda mos ravishda viloyatda jami xizmatlarning ulushi 29,4 va 36,6 milliard so'mni tashkil qildi ya'ni butun respublikada ko'rsatilgan sayyohlik xizmatlarining 12,4 va 11,7 foizni tashkil qildi. Qolgan hududlar bilan qiyoslaganimizda bu juda ham yaxshi ko'rsatkichdir. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki Samarqand o'zinig jaxondagi eng ko'xna va me'moriy yodgorliklarga boy bo'lgan shahar ekanligi bilan, bugungi kunda butun dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qilmoqda va ushbu maskanni tomosha qilishga xorijiy sayyoxlarni qiziqishlari tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" PQ-1754-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida shu mazmundagi Samarqand viloyati hokimining 2012 yil 14 mayda 100-Q sonli qarori qabul qilingan.

Dastur bilan Samarqand viloyatida 2012-2016 yillar davomida xizmatlar ko'rsatish va sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

"Mikrokreditbank" OATB mablag'lari hisobidan 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan imtiyozli kredit resurslarining prognoz hajmlari shahar va tumanlar kesimida quyidagi jadvalda ishlab chiqilgan (3.2.3-jadval). Ajratiladigan imtiyozli kredit resurslari xizmat ko'rsatish sohasining yangi obyektlarini barpo etishga, shuningdek xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan amaldagi tadbirkorlik subyektlarini texnik va texnologik jihozlashga (qayta jihozlashga) maqsadli tarzda yunaltirilishi, imtiyozli kredit resurslarini olish uchun ustuvor huquq qishloq joylarda xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga berilishi belgilab qo'yilgan. Samarqand shahrida turizmni yanada rivojlantirish maqsadida Respublikamizning uzoq hududlari, Xorazm, Buxoro, Farg'ona vodiysigacha

bo'lgan marshrutlar muntazam yo'lga qo'yiladi. Mazkur vazifalarning bajarilish natijasida xizmatlar sohasining viloyat umumiy hududiy mahsulotidagi ulushi 51,1 foizga yetishi kutilmoqda.

3.2.3-jadval.

**"Mikrokreditbank" OATB Samarqand viloyat filiali tomonidan
tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish va servis sohasini
rivojlantirish uchun 2012-2016 yilda ajratiladigan kreditlar
PROGNOZI.**

№	Shahar va tumanlar nomi	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
	Viloyat bo'yicha	1078,0	1402,0	1808,0	2332,0	3031,0
1	Samarqand sh	61,2	79,5	103,3	134,4	174,6
2	Kattaqo'rg'on sh	54,8	71,2	92,6	120,3	156,5
3	Bulung'ur	70,0	90,8	115,8	140,1	182,1
4	Jomboy	68,6	89,1	115,9	148,1	192,5
5	Ishtixon	61,2	79,6	103,4	134,5	174,8
6	Kattaqo'rg'on	72,4	94,1	122,4	159,1	206,8
7	Narpay	61,0	79,4	103,3	134,2	174,5
8	Nurobod	72,8	94,6	123,0	154,4	200,7
9	Oqdaryo	61,2	80,3	104,4	135,7	176,4
10	Payarlq	74,4	96,5	125,5	163,1	212,1
11	Pastdarg'om	61,6	80,2	104,2	135,5	176,1
12	Paxtachl	77,0	100,2	126,7	164,7	214,1
13	Samarqand	80,0	104,1	128,1	166,5	216,5
14	Tayloq	66,2	86,0	111,8	145,4	188,9
15	Urgut	64,6	83,8	108,9	141,6	184,1
16	Qo'shrobd	71,0	92,4	118,8	154,4	200,3

Manba: Samarqand viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Viloyatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: turistik infratuzilmaning zaifligi; turistlarga xizmat ko'rsatish sifatining yaxshi emasligi; turistlar oqimining mavsumiyliigi va mavsumlar davrining qisqaligi.

Samarqandda turizm sohasini yaxshilash borasida quyidagilarga e'tiborimizni qaratsak maqsadga muvofiq bo'lar edi: turistik resurslari holatini inobatga olgan holda turistik xizmatlarni rivojlantirish hamda yangilarini yaratish; turizm sohasidagi xizmatlar narxini turistlar uchun ma'qul va turizm industriya uchun foyda keltiradigan darajada saqlab qolish; turizm sohasiga xorijiy investisiyalarni jalb etish ko'lamini oshirish; turizm obyektlarida turistlarga xizmat ko'rsatishni tizimli tashkil etish va xizmatlar sifatini oshirish; turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy malakasini oshirish.

Turizmni rivojlantirish orqali quyidagilarga erishishimiz mumkin: yalpi ichki mahsulotning ko'payishi; davlat byudjetiga tushumlarning oshishi; aholining ish bilan bandlik darajasini ko'tarish; tabiiy resurslarni asrab-avaylash; mamlakatning siyosiy nu-fuzini yanada oshirish; davlatlar o'rtasida madaniy aloqalarni kengayishi va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turizm iqtisodiyotning ko'p tarmoqlariga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganidek: "Eng muhimi, shuni unutmaslik kerakki, katta kapital qo'yilmalar talab qilmaydigan bu soha iqtisodiyotning yuksalishiga, aholi bandligi va daromadlarining ortishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi". Darhaqiqat, bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimiz oldida turgan eng muhim vazifa, mamlakatimizni ko'rish, tomosha qilish istagida bo'lgan jahon aholisi vakillari uchun tegishli sharoit yaratib berish va ularga yuqori saviyada xizmat ko'rsatib, mablagTarni mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga safarbar qilishdan iboratdir.

3.3. Samarqand viloyatida turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

O'zbekistonning turizm infratuzilmasini rivojlanishida mamlakatning asosiy turizm mintaqalari muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo'lib, ular Samarqand-Buxoro, Farg'ona, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temiryo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'lmagan davonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun nihoyatda qulay omil hisoblanadi. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalari va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning ichanqa'la qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q nihoyatda boy tarixiy me'morchilik yodgorliklariga tayanadi.

Samarqand viloyati mamlakatimiz gavhari sifatida, turistik resurslarga boy hisoblanadi. Shuning uchun bu imkoniyatlardan foydalanib sayohat - ekskursiya ishlarini jadallashtirish mahalliy va halqaro turizmni rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shuni ta'kidlash lozimki, viloyatdagi turistik resurslar, ya'ni tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar hamda rekreatsiya resurslari, dam olish hududlari, sogTomlashtirish maskanlari, ekoturistik obyektlar to'gridan-to'g'ri bu tarmoqning istiqbolini belgilaydi.

Viloyatda mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni yangi bosqichga ko'tarish va rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona

foydalanish haqida gap borganda, eng avvalo viloyatda bor bo'lgan barcha ko'hna madaniy va me'morchilik yodgorliklariga to'xtalib o'tish zarur. Quyidagi jadvalda Samarqand viloytda mavjud tarixiy obidalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Viloyatdagi mavjud tarixiy obidalar

2015 yil 1 yanvar holatiga

№	Tuman, shaharlar nomi	Jami tarixiy obidalar soni	shundan:			
			Me'- moriy obekt- lar soni	Arxeolo- obe'ktlar soni	Ziyoratgoh joylar soni	Monu- mental obyektlar soni
Viloyat bo'yicha		1850	21	1105	37	21
	shaharlar:					
1	Samarqand sh	79	21	14	23	21
2	Kattaqurg'on sh			-		
	tumanlar:					
3	Bulung'ur	19	-	19	-	-
4	Jomboy	39	-	39	-	-
5	Ishtixon	64	-	64	-	-
6	Kattaqurg'on	42	-	42	-	-
7	Qushrabort	54	-	54	-	-
8	Narpay	55	-	55	-	-
9	Nurobod	50	-	50	-	-
10	Oqdaryo	106	-	105	1	-
11	Payariq	91	-	91	-	-
12	Pastdarg'om	145	-	144	1	-
13	Paxtachi	32	-	32	-	-
14	Samarqand	108	-	104	4	-
15	Tayloq	58	-	58	-	-
16	Urgut	239	-	234	5	-

Ushbu jadval maTumotlaridan ko'rinib turibdiki turistlar uchun jozibador bo'lgan asosiy tarixiy obidalarining barchasi Samarqand shahrida joylashgan. Jumladan me'moriy obidalarining barcha 21 tasi ya'ni 100 foizi; ziyoratgoh joylarning 23 tasi ya'ni 62,2 foizi. O'z navbatida viloyatning Pastdarg'om

tumanlarda 144ta, Oqdaryo tumanida 105ta, Samarqand hamda Urgut tumanlarida mos ravishda 104 va 234 ta mavjud arxeologiya obyektlarining asosiy qismini joylashgan bo'lib, mavjud arxeologiya obyektlarining salmoqli qismini Urgut tumanini ulushiga to'g'ri kelyapti va 21,2 foizni tashkil qilgan.

Viloyatda turistik infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, tumanlarda madaniy va maishiy, kommunikatsiya hamda boshqa xizmatlarni ko'paytirish, turistik ob'ektlarga boruvchi yo'llarni ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini olib borish, bu soha bo'yicha kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish turlizmini rivojlantirishni jadallashtiradi. Kelajakda bu mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi viloyatimizda turlizm xizmatlari bozorini yanada kengayishga olib kelishi mumkin.

Samarqandga tashrif buyurayotgan mehmonlar va sayyoxlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar soni va sifatini yanada oshirish, mehmonxonalarda xizmatlar hajmini ko'paytirish, tarixiy obidalarimiz atrofi va turistik marshrutlarda keng obodonlashtirish ishlarini olib borishni yo'lga qo'yish maqsadida viloyat hokimiyati tomonidan qabul qilingan «Samarqand viloyatida 2012-2016 yillarda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi» bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda.

Mintaqa turlizmi rivojlanishida transport tuzilmasining o'ri va ahamiyati juda salohiyatli bo'lib, bu jarayonda «O'zbekiston Havo Yulidagi» milliy aviakompaniyasining ham hissasini kattadir. Samarqand aeroporti soatiga 400 yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi. Yo'lovchilarga Samarqanddan Toshkent, Rossyaning Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol, Qozon va yana ko'plab boshqa shaharlarga, shuningdek, G'arb Yevropa va Osiyo mamlakatlariga jahon andazalariga javob bera oladigan xizmatlarni ko'rsatgan holda yetib borishlari mumkin. Turistlar uchun muhim transport turlini hisoblangan temir yo'l transporti ham turlizmini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Toshkent-Samarqand shaharlari o'rtasida shu nom, tezyurar poyezd "Afrosiyob" qatnashishni tashkil etilishi turistlar uchun katta qulayliklar yaratib berdi. Mamlakatimiz mustaqilligining yigirma yilligi arafasida, 26 avgust kuni

Toshkent va Samarqand shaharlari o'rtasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi «Afrosiyob» elektropoezdlarning ilk qatnovi amalga oshirildi. Elektropoezd 2 lokomotiv, 8 yo'lovchi vagoni va 1 vagon-restorandan iborat. Nogironlar va imkoniyatli cheklangan yo'lovchilar uchun maxsus qulayliklar ko'zda tutilgan. Maksimal tezligi 250 km/soatni tashkil etuvchi «Afrosiyob» Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan 344 kilometrlik masofani 2 soatda bosib o'tadi. Yangi elektropoezdlarning bunday yuqori tezlik bilan yurishi vaqtini tejash bilan birga, xarajatlarni ham keskin qisqartiradi.

Hozirgi kunning global muammolaridan biri ekologik muammolardir. Shuning uchun turlarning rivojlanishiga ekologik salohiyatning ta'siri oshib bormoqda. Turistik resurslar atrofida chiqindilarning- boriligi, atrof-muhitning sanitariga talablarga mos emasligi turistik oqimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tabiatni muhofaza qilishga doir mas'ul tashkilotlar hamda fuqarolarimizning bu holatga mas'ulligini oshirishga erishishimiz kerak. Bunda, ayniqsa, ekologik madaniyatni shakllantirish muhim xisoblanadi.

Albatta, har bir mintaqada turlarning- rivojlanishi uning tarixiy- madaniy salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Viloyat tarixiy-madaniy merosining yuqori salohiyatga ega ekanligining o'zi bu mintaqada kelajakda turlarning rivojlanish istiqbolini belgilab beradi. Hozirgi paytda asosiy vazifasi bu merosni asrab-avaylash hamda turlar faolligidan oqilona, samarali foydalanishdir. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- tarixiy-madaniy sohada marketingni rivojlantirish, ya'ni o'z salohiyatini taqdimot etish;
- har qanday turizm yoki turistik xizmat ko'rsatish obyekti hudud bo'yicha o'zining takrorlanmas tur mahsulotlarini yaratish;
- turizm sohasida muhim hisoblangan mintaqaning qo'shimcha salohiyatlarini aniqlash;
- turizm sohasida maqsadga erishish uchun mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish yo'llarini yaratish lozim.

Viloyatning turizmni rivojlantirish sohasida o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish kelajakda katta daromad manbaiga aylanishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik tarixiy joylar, tumanlardagi turistik resurslar bo'yicha ma'lumotlar bazasi yetarli emas. Bu joylar bo'yicha kompyuter-axborot tarmoqlarini yaratish lozim. Undan tashqari, kichik shaharlar, tumanlarda joylashtirish va ovqatlantirish masalalari ham yechilmagan. Bu hududlarda kichik mehmonxona va ovqatlanish korxonalarini iloji boricha milliy uslubda yaratish orqaligina turistlarni jalb qilish mumkin. Bulardan tashqari, yana quyidagi muammolar mavjud:

- ko'ngilochar xizmatlar infratuzilmasining xorijiy turistlar uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- yo'llarning ahvoli xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi;
- gid-tarjimon va ekskursovodlar malakasining talab darajasida emasligi;
- jamoat joylarida sanitariya holatining xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi;
- xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina kamchiliklarning mavjudligi va ularning sifat darajasi pastligi;
- mintaqaning turistik resurslari to'g'risida xalqaro miqyosda yetarlicha ma'lumot yo'qligi, reklama xizmatidan yetarli darajada foydalanilmasligi;
- milliy o'yinlar, folklor guruhlar namoyishlarining, milliy kiyimlar galereyalarining kamligi va boshqalar.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, mintakada turizmni rivojlantirish bo'yicha ko'plab yo'nalishlarini, loyihalarini amalga oshirish mumkin va bular quyidagilar:

1. Samarqand shahri va atrofidagi tumanlardagi tarixiy obidalar, qadimiy «Buyuk Ipak yo'li»ning mazkur xududdan o'tganligi "Tarixiy obidalar turizmi"ni rivojlantirishga olib keladi. Buning uchun, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va sifatini oshirishga doir ishlarni xamda soxani rivojlantirishning iqtisodiy-xuquqiy asosini takomillashtirish zarur.

2. Qadimiy Afrosiyob hududi va muzeyi, Samarqand tumanidagi arxeologik maskanlarning mavjudligi "Arxeologik turizm"ni rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand viloyatida turizmning bu turini rivojlantirish uchun turli xalqaro darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish targ'ibotini rivojlantirish kerak.

3. Samarqand viloyatida Buyuk diniy ulomalar Imom Al-Buxoriy, Al-Motrudiy, Maxdumi A'zam Dahbediy kabi majmualar va avliyolar qo'nim topgan joylarning ko'pligi "Diniy turizm"ning rivojlanishiga asos bo'ladi. Uni rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatish infratuzilmasi va sifatini oshirish, islom dunyosiga targ'ibot va reklama ishlarini rivojlantirish darkor bo'ladi.

4. Viloyatimizda tog'li va cho'l-dasht hududlarining mavjudligi xamda «Zarafshon» qo'riqxonasining borligi "Ekoturizm"ni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Uni rivojlantirish uchun esa ekoturizm obyektlariga investisiya jalb etish, tabiatni muhofaza qilishni hisobga olib ekoturizmni rivojlantirish dasturni ishlab chiqish kerak.

5. Tog'li hududlarda spelio- turizm resurslarining mavjudligi va turli tabiiy g'aroyibotlarning borligi "Sport turizmi"ni rivojlantirishga olib keladi. Bu turizm turini rivojlantirish uchun esa faol turizm turlariga oid ixti-soslashtirilgan va ko'ngilli mak tab va klublarni yaratish va ularni kerakli vositalar bilan ta'minlash kerak.

Samarqand shahri va atrofidagi mavjud turistik resurslar joylanishiga ko'ra qulay bo'lib, qisqa muddatli sayyohlik, ekskursiya xizmatlarini tashkil etishda mexnat resurslari, transport va boshqa xizmat turlari bo'yicha muammolar tug'ilmaydi. Ayniqsa, Samarqand shahriga yaqin bir qancha dam olish maskanlari mavjud. Faqat ularda xizmat ko'rsatish sohalarini to'g'ri yo'lga qo'yish asosiy vazifa hisoblanadi.

Mintaqada turistik resurslardan samarali foydalanish va uni rivojlantirish maqsadida tarixiy-me'moriy va arxeologik tanishuv turizmi, diniy turizm, madaniy-etnografik turizm, ekologik turizmga doir istiqbolli turistik

marshrutlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Fakat ularda xizmat ko'rsatish sohalarini to'g'ri yo'lga qo'yish asosida quyidagilarga erishish mumkin:

- turistik obyektlar atrofidagi mahalliy aholini ish bilan ta'minlashga imkoniyat yaratiladi;
- turistik obyektlarning asl holda saqlanishiga erishiladi;
- turli xalqlar bilan madaniy aloqalar yo'lga qo'yiladi;
- mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish orqali katta iqtisodiy foyda olishni ta'minlab milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shiladi.

Bunday tadbirlarni amalga oshirish natijasida mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishga ham erishiladi. Agar turistik obyektlarga yetarlicha ahamiyat berilmasa, ularning buzilishi ekologik holatning yomonlashuviga xam olib kелиsh mumkin. Shu sababli viloyatning turistik resurslarini yaxshi o'rgangan holatda turistik marshrutlarni ilmiy asosda tashkil etish viloyat turizmining rivojlanishiga katta hissa qo'shad. Bunda turistik marshrutlar asosida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish muhim masaladir. Chunki ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish nafaqat xorij turistlari uchun, balki birinchi galda respublikamiz aholisi, jumladan, shaharda istiqomat qiluvchilar uchun katta ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega.

Mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish va turizmni rivojlantirish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi dan, viloyatda turizm infratuzilmasini yaxshilash o'ta muhimdir. Buning uchun mahalliy va xorijiy investitsiya mablag'larini turizm sohasiga keng jalb etish va bu orqali xizmat ko'rsatish tarmoqlari, hamda mehmonxona majmualarini barpo etishni ta'minlash katta samara beradi. Bu mablag'larini faqat Samarqand shahriga emas, balki tumanlardagi so'lim joylarni turistlar tashrif buyuradigan darajaga keltirishga ham sarflash muhimdir.

Ikkinchi dan, viloyatda turizmga bog'liq tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak. Bunda, turistlarni jalb qilish maqsadida muntazam ravishda xalq hunarmandchiligi ishlari hamda milliy taomlar galereyalarini tashkil etish, milliy

folklor guruxlari va milliy kiyimlar namoyishini muntazam ravishda tizimli tarzda tashkil etishni lozim deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, turizm xizmat turlarini jahon andazasiga yetkazish maqsadida turizm sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Bunda turli ilmiy-tadqiqot markazlarini shakllantirish, turizm sohasidagi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshiradigan markazlarni ochish maqsadga muvofik. Bu borada Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilayotgan ishlarni yanada rivojlantirish kerak bo'ladi.

To'rtinchidan, mintaqa turistik salohiyatini jahonga tanitish uchun reklama-axborot tizimini takomillashtirish hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirish kerak deb hisoblaymiz. Buning uchun Samarqandning Internet sahifasini ko'paytirish, turli yarmarka va ko'rgazmalarda qatnashish, turli turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda mintaqa salohiyatini targ'ib qilish maqsadida seminar va yarmarkalar tashkil etish o'ta muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Samarqand viloyatida turizmni tashkil etish va rivojlantirish borasida katta turistik salohiyatga ega bo'lib, bu yerda yana qo'shimcha tarixiy, diniy, madaniy-etnografik turistik resurslarga boy hisoblangan qishloq joylarining mavjudligi keng turistik imkoniyatlardan dalolat beradi. Bu salohiyatdan turizm faoliyatida samarali foydalanish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz:

- mintaqada mavjud turistik resurslar asosida yangi turistik marshrutlarni shakllantirish hamda ekskursiya xizmatini takomillashtirish;
- turistik firmalarning faoliyatini ekologik, diniy, madaniy, sport ekstremal sayyohlik sohalariga yo'naltirish;
- xizmatlar turini, ayniqsa, sayyohlik yo'nalishiga kiritiluvchi xizmatlar turini kengaytirish orqali turistik firmalar daromadini ko'paytirish;
- xalqaro sayyohlik ko'rgazmalarini tashkil etish va o'tkazish.

Viloyatda turizmni rivojlantirish borasidagi bizning tavsiyalarimiz amaliyotga tadbiq qilinsa, jadal ravishda rivojlanib kelayotgan turizmni yanada

rivojlantrirsh uchun blr qancha lchkl lmkonlyatlar yechlladi. Pirovardlda mamlakat lqtsodlyotl ham riwojlanadi, aholnng farovon yashash lmkonlyatl ham yanada kengayadi.

Xulosalar va takliflar

Turlstik xizmatlar sohasining Respublika iqtisodiyotini barqaror va dinamik rivojlantirishdagi ahamiyatli masalasni o'rganish quyidagi xulosalarni qillishga imkoniyat berdi:

1. Milliy iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biri — xizmat ko'rsatish sohasida yirik iqtisodiy potensial yaratilgan va katta moddiy resurslar to'plangan. Iqtisodiyotning rivojlanishi va uning negizida ijtimoiy mehnat taqsimotining kuchayishi natijasida bu sohaning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi o'zgarib bormoqda: 2000 yilda xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 50,5 foizni va 2014 yilda esa 54 foizdan ziyodni tashkil etdi.

2. Ma'lumki, turlstik xizmat - turlstlarni mos ravishdagi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha turlizm korxonasini faoliyatini natijasi hisoblanadi. Turizm korxonasining ishi barcha sayohatlarni tashkil qilish bilan birga alohida xizmatlarni tashkil qilishi ham mumkin. Turlstlarga ko'rsatilayotgan turlstik xizmatning kengayib borishi davomida, uning rivojlanishiga optimal sharoit yaratishni ta'minlovchi va turli xil funksiyalarni bajaruvchi infratuzilmalar xizmatiga ham talab oshib boradi. Respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida hamda shahar va qishloqlarda xizmat ko'rsatish sohasiga, xususan, turlstik xizmat sohasiga katta e'tibor berilmoqda va uning rivojlantirish bo'yicha yetarli darajada ishlar amalga oshirilmoqda.

3. Xizmat - bu ijro etuvchi va istemolchi o'rtasidagi bevosita o'zaro tasirning natijasidir, hamda iste'molchi ehtiyojini qondirish bo'yicha ijrochining shaxsiy faoliyatini natijasi hisoblanadi. Turlstik xizmatning o'zi ham xizmatning bir turi hisoblanadi.

4. Turlstik xizmatlar - sayyohlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi turlizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir

5. Turistik xizmatlar deyilganda, turistik nahsulotlar va xizmatlarning iste'molchilari (turistlar) bilan ularni ishlab chiqaruvchilar (turfirmalar va turistlarga xizmat qiluvchi boshqa sub'yektlar) o'rtasida sodir bo'ladigan turistik maxsulotlar va xizmatlarni iste'mol qilish jarayonidagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi

6. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turistik xizmatlar -turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovkatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini kondirishga karatilgan boshqa xizmatlar ekan.

7. Viloyatimizda turistik xizmat ko'rsatish sohasi hozirgi kunda eng istiqbolli xizmat turlariga kiradi. Uning barcha xizmatlardagi xissasi ham kelajakda oshib boraveradi. Chunki bu soha unga ehtiyoj oshib borish tendensiyasiga ega. 2014 yilda 2012 yilga nisbatan turistik xizmatlarning hajmi 1,8 marta oshganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. (2.2.1-jadval)

8. Viloyatimizda savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari, aloqa axborotlashtirish xizmatlari xam taxlil qilinayotgan yillarda muntazam oshib borgan (2.2.5-jadval). Ushbu jadval maTumotlaridan turizm va mehmonxona xizmatlarining ulushi kam salmoqqa ega ekanligi ko'rinib turibdi. Bu xolat turizm saloxiyati bo'yicha katta imkoniyatga ega bo'lgan Samarqand viloyati uchun xali yetarli emas, albatta. Ushbu xizmat turidan olinadigan daromadlarni oshirish uchun turistik obyektlar jozibadorligini mehmonxona xizmatlarini kengaytirish ishlarini jonlantirish lozim bo'ladi.

9. O'zbekiston boy turistik resurslarga ega bo'lishiga qaramay, mavjud imkoniyatdan foydalanish darajasi talab qilingan holatdan ancha kam. Ushbu sohaning yana bir muhim jihati, qishloqda ishsiz aholini ish bilan ta'minlash masalasini ham hal qilishga ko'maklashuvchi muhim soha hisoblanadi. Chunki, xususiy tadbirkorlik uchun jozibador bo'lgan ko'pgina an'anaviy xizmat turlari shaharda ham, qishloqda ham yetarli darajada rivojlangan emas.

10. Xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faolligini yanada kuchaytirish uchun qullay shart-sharoit yaratish, xususan, bu boradagi

rasmlyatchilik to'sliqlarini bartaraf etish o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

11. Turistik xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Turistik xizmatlar sohasida, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

- Turistik xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko'rsatlayotgan xizmatlar hajmi va sifatini bo'yicha iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar darajasiga chiqish;

- Eng muhim, katta kapital qo'yilmalar talab qilmaydigan bu soha iqtisodiyotning yuksalishiga, aholi bandligi va daromadlarining oshishiga sezilarli darajadagi ijobiy ta'sirini oshirib borish;

- Turistik xizmatlarning yangi istiqbolli turlarini rivojlantirish;

- Mamlakatimiz turistik xizmatlar eksportini ko'paytirish uchun ushbu soha korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga erishish;

- Turistik xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab- quvvatlash.

12. Viloyatimizda turistik xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun ushbu tadbirlarni amalga oshirish bu sohani yanada rivojlantirishga olib keladi deb o'ylaymiz. Chunki, bugungi ehtiyoj va talabdan kelib chiqib, belgilangan tadbirlar, ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.